

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA  
TELEKOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO'MITASI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNEVERSITETI**

**FIZIKA KAFEDRASI**

**FIZIKA FANIDAN LABORATORIYA ISHLARI VA  
USLUBIY KO'RSATMALAR**

**III - QISM**

**TERMODINAMIKA VA MOLEKULYAR FIZIKA, QATTIQ JISMLAR VA  
YADRO FIZIKASI**

**Toshkent-2013**

# **FIZIKA FANIDAN LABORATORIYA ISHLARI VA USLUBIY KO'RSATMALAR**

## **III - QISM**

### **TERMODINAMIKA VA MOLEKULYAR FIZIKA, QATTIQ JISMLAR VA YADRO FIZIKASI**

Fizika kafedrasining majlisida ko'rib chiqildi va ma'qullandi  
bayonnomma № \_\_\_\_\_ 20\_\_ y.

Televizion texnologiyalari fakultetining ilmiy metodik kengashi majlisida ko'rib  
chiqildi va ma'qullandi  
bayonnomma № \_\_\_\_\_ 20\_\_ y.

TATU IMK tomonidan chop etishga tavsiya etildi  
bayonnomma № \_\_\_\_\_ 20\_\_ y.

Mas'ul muharrir: Fizika-matematika fanlari  
doktori prof. Abduraxmonov Q.P.,

Tuzuvchilar:  
Prof. Abduraxmonov Q.P.  
Prof. Abduqodirov M.A.  
Kat.o'qit. Ochilova N.X.  
Kat.o'qit. Xolmedov H.M.  
Assist. Masharipova S.YU.  
Bosh muharrir: Dots. Abduazizov O.A.  
Muharrir: Dots. Haydarov Q.H.  
Muharrir: Ass. Muhamedaminova L.M.  
Tahrirchi: Parpiyeva Q.

Ushbu uslubiy qo'llanma fizika fanining “Termodinamika va molekulyar fizika, qattiq jismlar va yadro fizikasi” bo'limlari bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan o'nta laboratoriya ishlari va ularga doir uslubiy ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan.

Bu qo'llanma fizika fani bo'yicha “Kompyuter injenering”, “Telekommunikatsiya texnologiyalari”, “Dasturiy injenering”, “Televideniye texnologiyalari”, “Iqtisodiyot va menejment”, “Pochta xizmati”, hamda “Kasb ta'limi” yo'nalishlari bo'yicha birinchi bosqich bakalavrлari uchun ishlab chiqilgan ishchi dasturga mos ravishda tayyorlangan.

Unda talabalar o'zlashtirgan nazariy bilimlarni tekshirish uchun nazorat savollari va zaruriy adabiyotlar ro'yxati berilgan.

## 1 - laboratoriya ishi

### Suyuqliklarning ichki ishqalanish koeffisentini Stoks usuli bilan aniqlash

**Ishning maqsadi:** Ko'chish hodisasini o'rganish, suyuqliklarning ichki ishqalanish koeffisentini hisoblash .

**Kerakli asboblar va materiallar:** taglikka o'rnatilgan va ichiga qovushqoq suyuqlik solingen shisha silindr qurilma; kichik diametrli pitra-metal sharchalar; mikrometrik okulyarli mikroskop; masshtabli chizg'ich; areometr; termometr; sekundomer.


### Asosiy nazariy ma'lumotlar

Ichki ishqalanish ko'chish hodisalaridan biri bo'lib, ixtiyoriy muhitda kuzatiladi. Suyuqliklarda ichki ishqalanishning hosil bo'lish sabablarini gidrodinamik va molekulyar kinetik nazariya asosida qarab chiqamiz. Suyuqlikning qovushqoqligi, ya'ni impulsning qatlidan qallamga ko'chishi asosan molekulalar tufayli sodir bo'ladi. Suyuqlikning molekulalari gaz molekulalari kabi erkin harakat qila olmaydi, ular tebranma harakat qilib, vaqtiga bilan ko'chadi, bunda siljish masofasi ularning o'lchamlari tartibida bo'ladi. Suyuqlik zichligi katta bo'lganligi sababli molekulalarning ilgarilanma harakati cheklangandir. Past haroratlarda suyuqlik molekulalarining sakrab ko'chishi juda siyrak bolganligi sababli, suyuqlikning qovushqoqligi gazlarnikiga nisbatan juda katta boladi. Suyuqlikning qovushqoqligi haroratga kuchli bog'liq bo'lib, harorat ortishi bilan tez kamaya boradi.

Suyuqlik harakatlanganda uning qatlamlari orasida ichki ishqalanish kuchlari yuzaga kelib, ular qatlamlar tezliklarini tenglashtirishga intiladi. Bu kuchlarning yuzaga kelishini quyidagicha tushuntirish mumkun: har xil tezliklir bilan harakatlanuvchi qatlamlar molekulalari bilan o'zaro almashinadi, natijada katta tezlik bilan harakatlanuvchi qatlam molekulalari sekinroq harakatlanuvchi qatlamga bir miqdor impuls uzatishi sababli sekinroq harakatlanuvchi qatlaming harakati tezlashadi. Aksincha, bunday almashinish natijasida tezligi katta bo'lgan qatlam sekinlashadi. Shunday qilib, qatlidan qatlamga impulsning ko'chishi, impulsning o'zgarishiga sabab bo'ladi. O'z o'rnila impulsning o'zgarishi esa qatlamlararo parallel joylashtirilgan tekislikka urinma ravishda yo'nalgan ichki ishqalanish kuchini hosil qiladi. Nyuton qonuniga binoan ichki ishqalanish kuchi quyidagiga tengdir(1-rasm):

$$F_{ishq} = -\eta \frac{dU}{dz} \Delta S \quad (1)$$

(1) dan ko'rindiki, suyuqlik qatlamlari orasidagi ichki ishqalanish kuchi qatlamlar orasidagi  $\frac{dU}{dz}$  tezlik gradientiga to'g'ri proporsionaldir. Bu ifodadagi  $\eta$  - proporsionallik koeffisienti bo'lib, u suyuqlik tabiatiga, holatiga va haroratiga bog'liq. Unga *ichki ishqalanish koeffisienti* yoki *qovushqoqlik koeffisiyenti*, yoki



qisqacha suyuqlikning qovushqoqligi ham deyiladi.

Agar (1)da  $\frac{dU}{dz} = 1$  va  $\Delta S = 1$  bo'lsa,  $|F_{ishq}| = 1$  bo'lganligidan ichki ishqalanish koeffisientini quyidagicha ta'riflash mumkun:

Dinamik qovushqoqlik koeffisienti deb, tezlik gradienti bir birlikka teng bo'l-ganda qatlamlararo joylashgan yuza birligiga urinma ravishda ta'sir qiluvchi ichki ishqalanish kuchiga miqdor jihatdan teng bo'lgan fizik kattalikka aytildi.

Ichki ishqalanish koeffitsienti SI sistemasida  $|\eta|_{SI} = \frac{N \cdot s}{m^2} = kg \cdot m^{-1} \cdot s^{-1}$  larda o'lchanadi.

Qovushqoqlik muhitida tushayotgan sharchaga vertikal bo'y lab quyidagi uchta kuch ta'sir qiladi(2- rasm):

1) pastga tomon yo'nalgan og'irlilik kuchi:

$$P = mg = \rho g V = \rho g \frac{4}{3} \pi r^3 = \frac{1}{6} \pi d^3 \rho g \quad 2)$$

2) yuqoriga yo'nalgan, sharcha siqib chiqargan suyuqlikning og'irligiga miqdor jihatdan teng bo'lgan Arximed kuchi:

$$F_A = P_0 = \rho_0 g V = \rho_0 g \frac{4}{3} \pi r^3 = \frac{1}{6} \pi d^3 \rho g \quad (3)$$

3) o'z orqasida uyurmalar hosil qilmay, kichik tezlik tushayotgan sharchaga, Stoks ko'rsatishicha, ichki ishqalanish kuchi

$$F_{ishq} = 6\pi \vartheta r \eta = 3\pi \vartheta d \eta \quad (4)$$

ta'sir etadi. Bu formulalarda  $\rho$  va  $\rho_0$  mos ravishda sharcha va suyuqlik zichliklari;  $V$  - sharcha hajmi;  $r$  va  $d$  - sharchaning radiusi va  $g$  - erkin tushish tezlanishi;  $\vartheta$  - sharchaning qovushqoq suyuqlikdagi barqarorlashgan tezligi.

Sharchaning suyuqlik ichidagi harakatini ikki bosqichga ajratish mumkin:


Birinchi bosqichda sharcha tezlanuvchan harakat qilib, bu harakat davomida sharchaga ta'sir qiluvchi natijalovchi kuch kamaya boradi. Birinchi bosqichda sharcha harakat tengla-masini Nyutonning 2- qonuni asosida quyidagicha yozamiz:

$$m \frac{d\vec{\vartheta}}{dt} = \vec{P} - \vec{F}_A - \vec{F}_{ishq} \quad (5)$$

bunda  $m$  - sharchaning massasi,  $\frac{d\vec{\vartheta}}{dt}$  - sharchaning tezlanishi.

Ikkinci bosqichda, sharchaning tezligi muayyan qiymatga ega bo'lganda, natijalovchi kuch nolga teng bo'lib, sharcha doimiy tezlik bilan harakatlanadi. U holda (5) tenglama quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\vec{P} - \vec{F}_A - \vec{F}_{ishq} = 0 \quad (6)$$



bilan

2 - rasm

(4)

(6)dagi  $\vec{P}$  - og'irlik,  $\vec{F}_A$  – Arximed va  $\vec{F}_{ishq}$  - Stoks kuch vektorlari bir to'g'ri chiziq bo'ylab yo'nalganligi uchun uning skalyar ko'rinishdagi ifodasi ham shunday bo'ladi:

$$P - F_A - F_{ishq} = 0 \quad (6a)$$

(2), (3), (4) lardan,  $P$ ,  $F_A$ ,  $F_{ish}$  kuchlarning ifodalarini (6a)ga qo'yilsa

$$\frac{1}{6}\pi d^3 g(\rho - \rho_0) - 3\pi g d \eta = 0 \quad (7)$$

tenglamani olamiz va bundan  $\eta$ -ichki ishqalanish koeffitsientini aniqlasak:

$$\eta = \frac{1}{18} \frac{\rho - \rho_0}{g} g d^2 \quad (8)$$

Bu yerda  $\vartheta$  - sharchaning barqaror topgan tezligi bo'lganligidan, u quyidagiga tengdir:

$$\vartheta = \frac{\ell}{\tau} \quad (9)$$

(9) ni (8) ga qo'yilsa, nihoyat ishchi formula kelib chiqadi:

$$\eta = \frac{1}{18} \frac{\rho - \rho_0}{\ell} g d^2 \tau \quad (10)$$

Bunda  $\ell$ -sharcha tekis harakatlanib o'tadigan, qo'shni belgilar orasidagi masofa,  $\tau$ -sharchanining shu masofani o'tish vaqtini.

(10) formuladagi  $\rho, \rho_0, d, \ell, \tau$  - kattaliklarning qiymatlarini bilgan holda ushbu ifoda yordamida suyuqlikning ichki ishqalanish koeffitsientini aniqlash mumkun.

Bu (10) ishchi formula sharcha harakatlanadigan muhitning chegaralari cheksiz uzoqlashgan hollar uchun, ya'ni sharcha harakatiga idish devorining ta'siri bo'limgan hol uchun o'rinnlidir. Shu maqsadda juda kichik diametrli sharchalar olingan.

Ikkinchisi tomondan, Stoks formulasidagi ichki ishqalanish kuchlari, faqat suyuqlikning *laminar oqimi* uchungina o`rinlidir.

Laminar oqim (*lamina* - qatlamlar) deb, suyuqlik yoki gaz qatlamlarining bir-biriga nisbatan sirpanib oqishiga, boshqacha qilib aytganda, qatlamlili oqimga aytildi. Laminar oqimda suyuqlik (yoki gaz) qatlamlari o'zaro parallel siljiydi. Laminar oqimda vaqt bo'yicha oqim chizig'i o'zgarmasligi sababli, u statsionar- barqaror harakatdan iboratdir. Biroq yetarlicha katta tezliklarda laminar oqim beqaror bo'lib qoladi va *turbulent oqim* deb ataluvchi oqimga aylanadi.

Turbulent oqim (*turbulentus* – jo'shqin, tartibsiz) deb, suyuqlik yoki gaz zarrachalarining tezigi doim tartibsiz o'zgarib turadigan, uyurmali oqimga aytildi.


Turbulent oqimda, oqim chizig'i har doim o'zgarib turganligi sababli, bu harakat nostatsionar – beqaror harakatdan iboratdir.

Shunday qilib, (10) ishchi formula suyuqlikning laminar oqimidan iborat bo'lgan statsionar- barqaror harakati uchun o'rnlidir.

## **Qurilmaning tuzilishi va o`lchash usuli**

Suyuqliknng ichki ishqalanish koeffitsientini Stoks usuli bilan aniqlashda ishlataladigan qurilma (3-rasm), diametri ~5 sm, uzunligi ~50 sm bo'lgan shisha idishdan iborat bo'lib, unga tekshirilayotgan suyuqlik (glitsirin) quyiladi. Tajribada ishlataladigan sharchalarning diametri mikrometrik okulyarli mikroskop yordamida aniqlanadi. O'lchanadigan sharchalar mikroskopning buyum stolchasiga o'rnatilib, uning tasviri aniq ko'runguncha fokuslanadi.

Tajribalarni turli sharchalar bilan kamida 10 marta takrorlash kerak.



3 - rasm

### 1. Tajribani o'tkazish tartibi va hisoblashlar

1. Millimetrali chizg'ich yordamida tekshiriladigan suyuqlik solingan idishning A va B (3-rasm) belgilari orasi o'lchanadi.
2. Areometr yordamida tekshirilayotgan suyuqlikning  $\rho_0$  zichligi, termometr bilan harorati  $t^\circ$  o'lchanadi.
3. Sharcha zichligi  $\rho$  ning qiymati tegishli jadvaldan aniqlanadi.
4. O'lchanadigan har bir sharchani mikroskopning buyum stolchasiga o'rnatib, uning har  $60^\circ$  burchak ostidagi  $O_1O'_1$ ,  $O_2O'_2$  va  $O_3O'_3$  yo'naliishlardagi (4-rasm) diametrining uchta:

$$\Delta N_1 = N_2' - N_1'; \quad \Delta N_2 = N_2'' - N_1''; \quad \Delta N_3 = N_2''' - N_1'''$$

qiymatlari mikrometrik shkalalar bo'limida o'lchanadi.

5. Har bir sharchaning o'rtacha diametri, mikrometrik shkalalar bo'limida ifodalanadi:


$$\langle \Delta N \rangle = \frac{\Delta N_1 + \Delta N_2 + \Delta N_3}{3} \quad (11)$$

6. Har bir sharchaning o'rtacha diametri  $\langle d \rangle$  santimetrarda ifodalanadi:

$$\langle d \rangle = \alpha \langle \Delta N \rangle \quad (12)$$

bunda  $\alpha = 1 \cdot 10^{-3}$  sm bo'lib, mikrometrik shkala har bir bo'limning santimetrdagi ifodasidir.

Bu ma'lumotlarning barchasi 1- jadvalga yoziladi.



4 - rasm

1-jadval

Nº	$N'_1$	$N'_2$	$N''_1$	$N''_2$	$N'''_1$	$N'''_2$	$\Delta N_1$	$\Delta N_2$	$\Delta N_3$	$\langle \Delta N \rangle$	$\langle d \rangle$	Doimiy lar
1												$t^\circ =$
2												$\rho_0 =$
3												$\rho =$
...												$l =$
...												
...												
10												

- 7 Har bir sharchaning A va B belgilar orasini bosib o'tish vaqtি  $\tau$  sekundomer yordamida aniqlanadi.
- 8 Tajribada aniqlangan kattaliklar  $\rho, \tau, \rho_0, l$  va  $\langle d \rangle$  ning qiymatlari (10) hisoblash formulasiga qo'yib, har bir tajriba uchun suyuqlikning ichki ishqalanish koeffitsienti aniqlanadi. 6, 7 va 8 bandlardan olingan natijalar 2- jadvalga yoziladi.

### Tajriba xatoliklarini hisoblash

1. 2-jadval asosida aniqlangan suyuqlikning ichki ishqalanish koeffisientlarining o'rtacha qiymati hisoblanadi:

$$\langle \eta \rangle = \frac{\eta_1 + \eta_2 + \dots + \eta_n}{n} = \frac{\sum_{i=1}^n \eta_i}{n} \quad (13)$$

2. Har bir tajribada qilingan absolyut xatolik hisoblanadi:

$$\Delta \eta_i = \langle \eta \rangle - \eta_i \quad (14)$$

3. Tajriba paytida qilingan o'ratacha absolyut xatolik topiladi:

$$\langle \Delta \eta \rangle = \frac{|\Delta \eta_1| + |\Delta \eta_2| + \dots + |\Delta \eta_n|}{n} = \frac{\sum_{i=1}^n |\Delta \eta_i|}{n} \quad (15)$$

4. Suyuqlik ichki ishqalanish koeffisientining ishonch intervali quyidagicha yoziladi:

$$\eta = \langle \eta \rangle \pm \langle \Delta \eta \rangle \quad (16)$$

5. Tajribada qilingan nisbiy xatolik hisoblanadi:

$$\delta(\eta) = \frac{\langle \Delta \eta \rangle}{\eta} \cdot 100\% \quad (17)$$

Bu topilgan ma'lumotlarning barchasi 2-jadvalga yoziladi.

2-jadval

$\text{№}$	$d_i$	$\tau_i$	$\eta_i$	$\langle \eta \rangle$	$\Delta \eta_i$	$\langle \Delta \eta \rangle$	$\eta$	$\delta(\eta)$
1								
2								
3								
...								
...								
10								

### Nazorat uchun savollar

1. Suyuqliklarda ichki ishqalanish kuchining hosil bo'lishini gidrodinamik va molekulyar–kinetik nazariya asosida tishuntiring.
2. Ichki ishqalanish (qovushqoqlik) koeffitsientini ta'riflang.
3. Hisoblash formulasi asosida ichki ishqalanish koeffisentining SI sistemasidagi o'lchov birrligini chiqaring.
4. Suyuqliklarning qanday harakatini laminar va turbulent oqim deb ataladi.
5. Stoks qonunini ta'riflang.
6. Suyuqlikning ichki ishqalanish koeffisentini aniqlash – Stoks usulini tushuntiring.
7. Suyuqlikka tushurilgan sharchaga ta'sir qiluvchi kuchlarni tushuntirib bering.
8. Suyuqlikning ichki ishqalanishi haroratga nisbatan qanday o'zgaradi?
9. O'lchash xatoliklari qanday hisoblanadi?

### Adabiyotlar

1. Frish S.E, va Timoreva A.V. Umumiy fizika kursi.- 1 tom. T. O'qituvchi. 1965. §42,46
2. Savelev N.V. Umumiy fizika kursi.- 1 tom.T.:O'qituvchi.1973. § 58, 59, 69.
3. Sivuxin D.V. Umumiy fizika kursi "Mexanika" T.:O'qituvchi. 1961, 194, 96, 97, 98, 99.
4. Fizikadan praktikum. Mexanika va molekulyar fizika. Professor Iveronova V.I. tahriri ostida. T.:O'qituvchi.1973. 46-vazifa.
5. Nazirov E.N. va boshqalar. Mexanika va molekulyar fizikadan praktikum. T.:O'qituvchi.1979, 14-ish.

## 2 - laboratoriya ishi

### Gazlar issiqlik sig’imlarining nisbatini Kleman-Dezor usuli bilan aniqlash

**Ishning maqsadi:** Termodinamikaning birnchi qonunini, ichki energiya va uning formulasini o’rganish, issiqlik sig’imlari bilan tanishish

**Kerakli asbob va materiallar:** qurilma , U-simon suvli manometr, nasos yoki kompressor

### Asosiy nazariy ma'lumotlar

Tekshirilayotgan jismlar to’plamiga jisimlar tizimi yoki soddagina qilib tizim deb ataladi. Juda kichik o’lchamlar va massalarga ega bo’lgan jismlar sifatida qaraluvchi ko’p sonli molekulalardan tuzilgan tizimlarga misol qolib gazlarni olish mumkun.

Molekulalari o’zaro ta’sirlashmaydigan moddiy nuqtalar to’plamiga o’xshash xossalarga ega bo’lgan gazlarga *ideal gazlar* deyiladi.

Har qanday gazning holati, holat parametrlari deb ataluvchi bosim  $P$ , harorat  $T$  va gaz egallagan hajm  $V$  bilan xarakterlanadi.

Barcha holat parametrlari uzoq vaqt davomida o’zgarmay qolgan tizimning holatiga *muvozanatlari holat* deyiladi.

Tizimning bir holatdan ikkinchi holatga o’tishiga *jarayon* deyiladi. Muvozanatlari holatlarning uzluksiz ketma-ketligidan iborat bo’lgan jarayonga muvozanatlari jarayon deb ataladi.

Muvozanatlari holat va muvozanatlari jarayon tushunchalari termodinamikada katta rol o’ynaydi. Termodinamikaning barcha miqdoriy xulosalarini faqat muvozanatlari jarayonlargagina qo’llash mumkun.

Gaz(yoki tizim)ga berilgan issiqlik miqdori, uning holatini o’zgartiradi, natijada biror ish bajaradi. Bunday o’zgarishni energiyaning saqlanish qonunidan iborat bo’lgan, quyidagi termodinamikaning bosh qonuni to’liq izohlab beradi.

Tizimga berilgan issiqlik miqdori ( $dQ$ ) tizimning ichki energiyasining o’zgarishi ( $dU$ ) ga va tizimning tashqi kuch ustidan bajargan ishi ( $dA$ )ga sarflanadi, ya’ni

$$dQ = dU + dA \quad (1)$$

Agar tizim ideal gazdan iborat bo’lsa, gazning ichki energiyasi molekulalar harakatining o’rtacha kinetik energiyasi  $\langle \varepsilon \rangle = \frac{1}{2} kT$  ning yig’indisiga tengdir. Agar berilgan gazda  $N$  ta molekula bo’lsa uning ichki energiyasi

$$U = N \langle \varepsilon \rangle = N_A \frac{m}{\mu} \cdot \frac{i}{2} kT = \frac{m i}{\mu 2} RT \quad (2)$$

bunda  $N_A = 6,022 \cdot 10^{26} \text{ kmol}^{-1}$  – Avogadro soni;

$k = 1,38 \cdot 10^{-23} \text{ J/K}$  - Boltsman doimiysi;

$R = 8,31 \cdot 10^3 \text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$  - universal gaz doimiysi;

$T$  – absolyut harorat,  $K$ ;

$m$  – gazning massasi,  $kg$ ;  $\mu$  – gazning molyar massasi;

$i$  - gaz molekulalarining erkinlik darajasi.

Gaz molekulalarining o’rtacha erkinlik darajasi deb, gaz molekulalarining fazodagi harakati holatini aniqlab beruvchi erkin koordinatalar soniga aytildi. Masalan,

bir atomli gaz molekulalari uchun  $i = 3$ ;

ikki atomli gaz molekulalari uchun  $i = 5$ ;

uch va ko’p atomli gaz molekulalari uchun  $i = 6$  ga tengdir.

(2)dan gaz ichki energiyasining o’zgarishi

$$dU = \frac{m}{\mu} \cdot \frac{i}{2} R dT \quad (3)$$

Nihoyat, gaz hajmining o’zgarishida bajarilgan ish gaz bosimi  $P$  ning hajm o’zgarishi  $dV$  ga ko’paytmasiga tengdir:

$$dA = p \cdot dV \quad (4)$$

(3) va (4) larni (1) ga qo’yilsa, termodinamika birinchi qununining matematik ifodasi quyidagi umumiy ko’rinishga keladi

$$dQ = \frac{m}{\mu} \frac{i}{2} R dT + p dV \quad (5)$$

Termodinamikada tizimlarning issiqlik olish xususiyatlarini xarakterlash uchun issiqlik sig’imi tushunchasi kiritilgan.

Termodinamika birinchi bosh qonunining (5) ko’rinishidagi matematik ifodasidan ideal gazning holat tenglamalarini va gaz jarayonlaridagi issiqlik sig’imlarining matematik ifodalarini osongina isbotlash mumkun.

1. Moddaning issiqlik sig’imi ( $C_m$ ) deb, uning haroratini  $1K$  ga o’zgartirish uchun zarur bo’lgan issiqlikka miqdor jihatdan teng bo’lgan fizik kattalikka aytildi, ya’ni

$$C_m = \frac{dQ}{dT}, \quad dQ = C_m dT \quad (6)$$

2. Moddaning solishtirma issiqlik sig’imi ( $C$ ) deb, massasi bir birlikka teng bo’lgan moddani  $1K$  ga isitish uchun zarur bo’lgan issiqlikka miqdor jihatdan teng bo’lgan fizik kattalikka aytildi, ya’ni

$$C = \frac{dQ}{m dT}, \quad dQ = C m dT \quad (6a)$$

3. Moddaning molyar issiqlik sig’imi ( $C_\mu$ ) deb, 1 mol moddani  $1K$  ga isitish uchun zarur bo’lgan issiqlikka miqdor jihatdan teng bo’lgan fizik kattalikka aytildi, ya’ni

$$C_\mu = \frac{dQ}{\frac{m}{\mu} dT}, \quad (7)$$

$$dQ = \frac{m}{\mu} \cdot C_\mu dT \quad (7a)$$

Solishtirma issiqlik sig'imi  $C$  bilan molyar issiqlik sig'imi  $C_\mu$  orasida quyidagi munosabat mavjud

$$C = \frac{1}{\mu} C_\mu \quad (8)$$

$$C_\mu = \mu \cdot C \quad (8a)$$

Gazlarning ussiqlik sig'implari, ularning qanday sharoitda isitilishiga bog'liqdir. Agar modda o'zgarmas hajmda, ya'ni  $V = const$  ( $dV = 0$ ) sharoitda isitsa, ***o'zgarmas hajmdagi issiqlik sig'imi*** yoki ***izoxorik issiqlik sig'imi*** deb ataladi va  $C_V$  bilan belgilanadi.

Agar moddani isitishda bosim o'zgarmas  $P = const$  bo'lsa, ***o'zgarmas bosimdagi issiqlik sig'mi*** yoki ***izobarik issiqlik sig'imi*** deyilib, u  $C_P$  bilan belgilanadi.

Biror gazga o'zgarmas hajmda, ya'ni  $V = const$  ( $dV = 0$ ) issiqlik berilsa, u faqat gaz ichki energiyasining o'zgarishiga sarf bo'ladi. U vaqtida (5) va (7a) larga asosan quyidagilarni yozish mumkin

$$dQ_V = \frac{m}{\mu} \cdot \frac{i}{2} R dT \quad (9)$$

$$dQ_V = \frac{m}{\mu} \cdot C_V dT \quad (9a)$$

(9) va (9a)dan o'zgarmas hajmdagi molyar issiqlik sig'imi  $C$  quyidagiga teng bo'ladi

$$C_V = \frac{i}{2} R \quad (10)$$

Agar gazga o'zgarmas bosimda ( $P = const$ ) issiqlik miqdori berilsa, u gaz ichki energiyasining o'zgarishi  $dU$  va kengayishidagi bajarilgan ish  $dA_p$  ga sarf bo'ladi, ya'ni

$$dA_p = p \cdot dV = \frac{m}{\mu} R dT \quad (11)$$

$$(11) \text{ dan} \quad R = \frac{A_p}{\frac{m}{\mu} dT} \quad (11a)$$

Binobarin, universal gaz doimiysi  $R$  o'zgarmas bosimda 1mol ideal gazni 1  $K$  ga isitishda gazning kengayishidagi bajargan ishiga miqdor jihatdan teng.

U vaqtida  $dQ_p$  ning ifodasini (5), (7a) va (11) tenglamalar asosida yozilsa

$$dQ_p = \frac{m}{\mu} \frac{i}{2} R dT + \frac{m}{\mu} R dT = \frac{m}{\mu} \left( \frac{i}{2} R + R \right) \quad (12)$$

$$dQ_p = \frac{m}{\mu} C_p dT \quad (12a)$$

Bu (12) va (12a) tenglamalarni o'zaro tenglashtirib, o'zgarmas bosimdagи molyar issiqlik sig'imi  $C_p$  ni aniqlash mumkun

$$C_p = \frac{i}{2} R + R \quad (13)$$

yoki  $C_p = \frac{i+2}{2} R \quad (13a)$

(13)da  $\frac{i}{2} R = C_V$  bo'lganligi uchun

$$C_p = C_V + R \quad (13b)$$

Bu ifodaga Robert-Mayer formulasi deyiladi .

Gazlarning o'zgarmas bosimdagи  $C_p$  sig'imining o'zgarmas hajmdagi  $C_V$  issiqlik sig'imiga nisbati  $\gamma = \frac{C_p}{C_V}$  adiabatik jarayonlarda tovushning gazlarda tarqalishida, gazlarning naylarda tovush tezligiga yaqin tezliklarda oqishida katta ahamiyatga egadir.

(13) ni (10) ga bo'lib, har bir gaz uchun o'ziga xos bo'lgan  $C_p$  ning  $C_V$  ga nisbatini topamiz

$$\gamma = \frac{C_p}{C_V} = \frac{i+2}{2} \quad (14)$$

(14)dan ko'rindiki,  $\gamma$  kattalik gaz molekula tuzilishini tavsiflovchi molekulaning erkinlik darajasi bilan aniqlanar ekan.

$\gamma$  berilgan gaz uchun o'zgarmas bo'lib, Puasson koeffitsienti ham deyiladi.

Gazlarning solishtirma issiqlik sig'imirining  $\gamma = \frac{C_p}{C_V}$  nisbatini topishning quyida bayon etilgan Kleman-Dezor usuli juda ham soddadir .

### **Qurilmaning tuzilidhi va o'lchash usuli**


Qurilma havo bilan to'ldirilgan 10-20 litr hajmli B shisha balondan iborat (1-rasm). Rezina naylar yordamida balonga ulangan U-simon manometrning tirsaklaridagi gazning hajmini balonning hajmiga nisbatan nazarga olmasa ham bo'ladi. Balonga yana N qo'l nasos yoki kompressor ulangan bo'lib, uning yordamida balonga gaz damlanadi. Po'kak tiqin yoki elektromagnit tiqin balon ichidagi gazni tashqi atmosferadan ajratib turadi. Balonda siqilgan gazning ortiqchasi juda kichik vaqtda tashqariga chiqib ketishga ulgurishi va yuz beradigan kengayish adiabatik jarayondan iborat bo'lishi uchun tiqin o'rnatilgan teshik yetarlicha katta bo'lishi kerak.

## Usulning nazariyasi

Balonga nasos yoki kompressor yordamida havo damlab, tiqin tezochib yopilgan-da balondagi gaz quyidagi uchta holatlardan o'tadi.

1. Agar tiqinni berkitib balonganacos bilan havo damlansa, idishning issiqlik o'tkazuvchanligi sababli idishdagi havoning haroratitashqi havoning harorati

$T_1$  ga tenglashguncha osha



1 - rasm

borishi sababli, idishdagi gazning bosimi ham osha boradi. Nihoyat idishdagi gazznung harorati tashqi harorat  $T_1$  ga teng bo'lgandagina ortiqcha bosimni ifodalovchi manometr sathlarining farqi aniq  $h_1$  qiymatga erishadi. Gazning bu holati  $T_1$  va  $P_1$  parametrlar bilan xarakterlanadi (1-holat:  $T_1$  va  $P_1$ ).

Agar atmosfera bosimi  $P_0$  bo'lsa, balondagi gazning bosimi quyidagiga teng bo'ladi

$$P_1 = P_0 + h_1 \quad (15)$$

2. Agar endi tiqin tez ochilsa, idishdagi havoning bosimi  $P_1$  tashqi  $P_0$  ga tenglashguncha idishdagi gaz adiabatik ravishda kengaya boradi, natijada havo  $T_2$  haroratgacha soviydi. Bu holat gazning ikkinchi holatidir (2 holat:  $T_2, P_0$ ).

3. Agar tiqin ochilgan zahotiyoy qaytadan berkitilsa, balondagi gaz izoxorik ravishda isiy boshlaydi. Gaz harorati ortishi bilan bosim ham orta boradi va nihoyat gazning harorati tashqi  $T_1$  harorat bilan tenglashganda bosimning oshishi to'xtaydi. Bu holat gazning uchunchi holati bo'ladi. (3-holat:  $T_1, P_2$ ). Idishdagi havoning shu paytdagi bosimini  $P_2$  bilan, manometrning shu bosimni munosib ko'rsatishini  $h_2$  bilan belgilansa,  $P_2$  quyidagiga teng bo'ladi

$$P_2 = P_0 + h_2 \quad (16)$$

Shunday qilib gazning birinchi holatdan 2-holatga o'tishi adiabatik jarayondan iborat bo'lganligi uchun, Puasson tenglamasini quyidagi ko'rinishda yozish mumkun

$$\frac{P_1^{\gamma-1}}{T_1^\gamma} = \frac{P_0^{\gamma-1}}{T_2^\gamma} \quad (17)$$

Bu yerda  $\gamma$  gazning o'zgarmas bosimdagi issiqlik sig'imini o'zgarmas hajmdagi issiqlik sig'imiga nisbatiga tengdir, ya'ni

$$\gamma = \frac{C_P}{C_V}$$

Gaz ikkinchi holatdan 3- holatga izoxorik-o'zgarmas hajmda o'tganligi uchun Gey-Lyussak qonuniga binoan quyidagini yozamiz

$$\frac{P_1}{T_1} = \frac{P_0}{T_2} \quad (18)$$

(17) tenglamaga  $P_1$  ning ifodasini (15) dan qo'yib hadlarning joyini almashtirish orqali quyidagi tenglamani hosil qilamiz

$$\left( \frac{P_0 + h_1}{P_0} \right)^{\gamma-1} = \left( \frac{T_1}{T_2} \right)^\gamma \quad (18a)$$

yoki  $\left( 1 + \frac{h_1}{P_0} \right)^{\gamma-1} = \left( 1 + \frac{T_1 - T_2}{T_2} \right)^\gamma \quad (19)$

Bu tenglamada  $\frac{h_1}{P_0}$  va  $\frac{T_1 - T_2}{T_2}$  lar birdan juda kichik bo'lgani uchun, tenglamaning ikki hadini Nyuton binomi bo'yicha yoyib, birinchi tartibli aniqlik bilan olinsa

$$\begin{aligned} \left( 1 + \frac{h_1}{P_0} \right)^{\gamma-1} &= 1 \cdot (\gamma - 1) \frac{h_1}{P_0} + \dots \approx 1 + (\gamma - 1) \frac{h_1}{P_0}, \\ \left( 1 + \frac{T_1 - T_2}{T_2} \right)^\gamma &= 1 + \gamma \frac{T_1 - T_2}{T_2} + \dots \approx 1 + \gamma \frac{T_1 - T_2}{T_2}. \end{aligned}$$

Shunday qilib, (10) tenglamani taxminan quyidagi ko'rinishda yozish mumkun:

$$1 + (\gamma - 1) \frac{h_1}{P_0} = 1 + \gamma \frac{T_1 - T_2}{T_2} \quad (20)$$

Bundan  $P_0 \frac{T_1 - T_2}{T_2} = \frac{\gamma - 1}{\gamma} h_1$  (20a)

Ikkinci tomondan (16)dan  $P_2$  ning igodasini (18)ga qo'yib quyidagini osongina hosil qilish mumkin:

$$h_2 = P_0 \frac{T_1 - T_2}{T_2} \quad (21)$$

Demak,  $h_2 = h_1 \frac{\gamma - 1}{\gamma}$  (22)

Bu tenglamadan gazning o'zgarmas bosimdag'i va o'zgarmas hajmdagi issiqlik sig'imining nisbati  $\gamma$  ni aniqlasak:

$$\gamma = \frac{C_P}{C_V} = \frac{h_1}{h_1 - h_2} \quad (23)$$

Bu tenglama yordamida  $\gamma$  ni hisoblash uchun gazning adiabatik kengayishigacha va adiabatik kengayishidan keyingi bosimining atmosfera bosimidagi ortiqcha qismlar  $h_1$  va  $h_2$  larni o'lchash kerak.

## Ishni bajarish tartibi va o'lchash natijalarini hisoblash

1. O'lchashni boshlashdan oldin qurilmaning ulanish joylari yetarlicha germetik ekanligiga ishonch hosil qilish kerak. Buning uchun manometrdagi suv sathlari farqi 15-20 sm ga yetguncha balonga nasos yordamida havo damlanadi. Vaqt o'tishi bilan balondagi gaz bosimining o'zgarishi kuzatib boriladi.

Agar qurilma germetik bo'lsa, ma'lum vaqtdan keyin termo-dinamik muvozanat yuz berib, bosimning kamayishi to'xtaydi.

2. Damlangan balon ichidagi gazning bosimi barqarorlashgach, bosimning atmosfera bosimidan ortiqcha qismi  $h_1$  o'lchanadi. U suvli manometrdagi sathlar ayirmasiga tengdir.

3. So'ngra P tiqin (ventil) juda kichik muddat ichida ochib yopiladi. Termodinamik muvozanat hosil bo'lgandan keyin yana balon ichidagi gaz bosimining atmosfera bosimidan ortiqcha qismi  $h_2$  suvli manometrdagi sathlar ayirmasidan olinadi.

4. Tajribalar kamida 10 marta takrorlanib, har bir tajriba natijalarini (23) formulaga qo'yib,  $\gamma$  hisoblanadi. Havo uchun tajribadan aniqlangan  $\gamma$  ning qiymati  $i = 5$  deb, (14) formula bo'yicha hisoblangan  $\gamma$  ning qiymatiga yaqin bo'lishi kerak.

5. Har bir o'lchash uchun  $\gamma_i$ , uning o'rtacha qiymati  $\langle \gamma \rangle$ , har bir o'lchashning absolyut xatoligi  $\Delta\gamma_i$  va o'rtacha absolyut xatolik  $\langle \Delta\gamma \rangle$ ,  $\gamma$  ning haqiqiy qiymati  $\gamma = \langle \gamma \rangle \pm \langle \Delta\gamma \rangle$  va  $\delta(\gamma) = \sqrt{\langle \Delta\gamma \rangle^2 + (\langle \gamma \rangle - \gamma)^2}$  nisbiy xatolik hisoblanadi.

Olingan barcha ma'lumotlar quyidagi jadvalga yoziladi.

Nº	$h_1$	$h_2$	$\gamma_i$	$\langle \gamma \rangle$	$\Delta\gamma_i$	$\langle \Delta\gamma \rangle$	$\gamma$	$\delta(\gamma), \%$
1								
2								
.								
.								
.								
10								

## Nazorat savollari

1. Qanday gazga ideal gaz deyiladi?
2. Ideal gazning ichki energiyasini ta’riflang va ifodasini yozing.
3. Termodinamikaning birinchi bosh qonunini ta’riflang?
4. Moddalar issiqlik sig’imlarining turlarini ta’riflang.
5. Ideal gazning o’zgarmas hajm va o’zgarmas bosimdagi molyar issiqlik sig’imlarining ifodasini yozing.
6. Robert – Mayer tenglamasini yozing.
7. Gaz molekulalarining erkinlik darajasi deb nimaga aytiladi?
8. Adiabatik jarayonni ta’riflang va uning tenglamasini yozing.
9. Hisoblash formulasini isbotlang.
10. Tajribani bajarish tartibini tushuntiring.

### **Adabiyotlar**

1. Savelev I.V. Umumi fizika kursi. 1 tom.T.:O’qituvchi.1973. §93, 94, 95, 101, 102, 103.
2. Kikoin A.K., Kikoin I.K. Molekulyarnaya fizika T. O’qituvchi. 1973. § 20, 21, 23, 24, 25, 26, 30.
3. Fizikadan praktikum. Mexanika va molekulyar fizika. Prof. Iveronova V.I. tahriri ostida. T. O’qituvchi.1973. 40-vazifa.
4. Nazirov E.N. va boshqalar. Mexanika va molekulyar fizikadan praktikum. T. O’qituvchi.1979, 12-ish.

### 3 - laboratoriya ishi

## Qattiq jismlarning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentini kalorimetrik usul bilan aniqlash

**Ishning maqsadi:** Ko'chish hodisasi, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti tushunchasi, harorat gradiyenti tushunchalari bilan tanishish.

**Kerakli asbob va materiallar:** issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentini aniqlash uchun kerakli qurilma: qaynatgich va isitgich; texnik tarozi va toshlar (yoki kvadrant tarozi); tekshiriluvchi qattiq jism; shtangensirkul; termometr; sekundomer.

### Asosiy nazariy ma'lumotlar

Agar qattiq jismning turli qismlari orasida haroratlar farqi mavjud bo'lsa, u holda gazlar va suyuqliklarda bo'lgani kabi, qattiq jismlarda ham issiqlik uning ko'proq isigan qismidan kamroq isigan qismiga uzatiladi.

Issiqlik o'tkazuvchanlik hodisasi deb, moddaning issiqliq qismidan sovuqroq qismiga, massasi ko'chmasdan molekulalarning tartibsiz harakati bilan issiqliknинг ko'chish hodisasiga aytildi.

Qattiq jismda issiqliknинг ko'chishi miqdoriy jihatdan xuddi suyuqlik va gazlardagi singari Furye qonuning quyidagi tenglamasi bilan ifodalanadi

$$dQ = -\kappa \frac{dT}{dx} dsdt, \quad (1)$$

bu yerda  $dQ$  - yuza  $dS$  orqali  $dt$  vaqt oralig'idagi ko'chib o'tgan issiqlik miqdori;  $dT/dx$  - harorat gradiyenti;  $\kappa$  - proporsionallik koeffitsiyenti bo'lib, unga issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti deyiladi. Birinchi tenglamaga asosan issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentini quyidagicha ta'riflash mumkin: **issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti** deb, harorat gradiyentiga perpendikular yo'nalishda bir birlik yuzadan vaqt birligi ichida ko'chgan issiqlikka miqdor jihatdan teng bo'lgan fizik katalikka aytildi.

Moddalarning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentlari haroratga bog'liq bo'lib, harorat oralig'ida deyarli o'zgarmas qoladi.

Moddalar agregat holatining o'zgarishi bilan issiqlik o'tkazuvchanligi ham o'zgarishi mumkin.

Moddaning gaz ko'rinishidagi agregat holatidagi issiqlik o'tkazuvchanlik jarayonida gaz molekulalarining tartibsiz harakati sababli o'zaro diffuziyalanishi muhim rol o'ynaydi. Gazlarning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti gazning zichligi  $\rho$  ga, molekulalarning o'rtacha arifmetik tezligi  $\langle v \rangle$  ga, o'rtacha erkin yugurish yo'lining uzunligi  $\langle \lambda \rangle$  va gazning o'zgarmas hajmdagi solishtirma issiqlik sig'imi  $C_V$  ga proporsional bo'lib, u quyidagiga tengdir

$$\kappa = \frac{1}{3} \rho \langle v \rangle \cdot \langle \lambda \rangle C_V \quad (2)$$

Gazning ichki ishqalanish koeffitsiyenti

$$\eta = \frac{1}{3} \rho \langle v \rangle \cdot \langle \lambda \rangle \quad (3)$$

bo‘lgani uchun (2) tenglamani quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$\dot{\chi} = \eta \cdot C_V \quad (4)$$

Shunday qilib, gazlarning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti gazlarning ichki ishqalanish koeffitsiyenti va izoxorik solishtirma issiqlik sig‘imiga proporsionaldir.

(2) tenglamadan ko‘rinadiki, gazning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti harorat o‘zgarishi bilan xuddi  $\langle v \rangle = \sqrt{\frac{8RT}{\pi\mu}}$  kabi o‘zgarishi, ya’ni  $\sqrt{T}$  ga proporsional o‘zgarishi kerak edi. Aslida issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti harorat ortganda  $\sqrt{T}$  dan ko‘ra birmuncha tezroq o‘sishini tajriba ko‘rsatadi.

Moddalarning suyuqlikdan iborat agregat holatidagi issiqlik o‘tkazuvchanligi, xuddi gazlardagi kabi, harorat gradiyenti bo‘lgan holdagina mavjud bo‘ladi. Agar gazlarda energiya tartibsiz harakat qilayotgan molekulalarning to‘qnashuvida uzatilsa, suyuqliklarda zarrachalarning muvozanat holati atrofida tebranishi jarayonida amalga oshadi. Kattaroq energiyaga ega bo‘lgan zarrachalar kattaroq amplituda bilan tebranib, boshqa zarrachalar bilan to‘qnashganda ularga energiya uzatib, ularni tebratadi. Energiyaning bunday mexanizm asosida uzatilishi, xuddi gazlardagi uzatilishdek, energiyaning tez uzatilishini ta’minlay olmaydi va shuning uchun ham suyuqliklarning issiqlik o‘tkazuvchanligi juda kichik bo‘ladi.

Moddalarning qattiq jism agregat holatidagi issiqlik o‘tkazuvchanlik mexanizmi undagi issiqlik harakatlarining xarakteridan kelib chiqadi. Qattiq jismlar atomlar to‘plamidan iborat bo‘lib, ular hamma vaqt tebranib turadi. Tebranishlar bir atomdan boshqalariga tovush tezligida uzatiladi, natijada tebranishlar energiyasini tashuvchi to‘lqin hosil bo‘ladi. Tebranishlarning ana shunday tarqalishida issiqlikning ko‘chishi ro‘y beradi.

Qattiq jismning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentini kvant tasavvurlar yordamida taxminiy ravishda hisoblash mumkin. Kvint nazariyasi qattiq jismda tovush tezligida tebranishlarni **fononlar** deb ataluvchi fiktiv zarralar bilan taqqoslashga imkon beradi. Har bir fononning energiyasi uning tebranish chastotasi bilan xarakterlanib, u Plank formulasiga binoan quyidagiga tengdir

$$\varepsilon = h\nu \quad (5)$$

Bunda  $h=6,625 \cdot 10^{-34}$  J.s. - Plank doyimiysi. Shunday qilib, qattiq jismlarni fononlar gazi bilan to‘ldirilgan idish deyish mumkin. Agar harorat uncha yuqori bo‘lmasa, fononlar gazini ideal gaz deb qarash mumkin. Odadagi gazlarda bo‘lgani singari, fonon gazida issiqlik fononlarning panjaradagi atomlar bilan to‘qnashishlari tufayli uzatiladi va ideal gazlarning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentini hisoblashdagi barcha mulohazalar bu yerda ham o‘rinli bo‘ladi. Shuning uchun ham qattiq jismning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentining matematik ifodasini xuddi (2) formula ko‘rinishida yozish mumkin

$$\dot{\chi} = \frac{1}{3} \rho \langle \lambda \rangle C \cdot V , \quad (6)$$

bunda  $\rho$  - qattiq jismning zichligi;  $\langle \lambda \rangle$  - fononlarning o‘rtacha erkin yugurish yo‘lining uzunligi bo‘lib, uni hisoblash birmuncha murakkabdir;  $C$  -qattiq jismning solishtirma issiqlik sig‘imi,  $V$ -qattiq jismda fononlarning tarqalish tezligiga teng.

Qattiq jismlarda fononlarning o‘rtacha erkin yugurish yo‘li uzunligi absolyut harorat  $T$  ga teskari proporsional bo‘lganligi uchun issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti ham teskari proporsionaldir, ya’ni

$$\kappa = \frac{a}{T} , \quad (7)$$

bu yerda  $a$  turli modallar uchun turlichal bo‘lgan o‘zgarmas kattalik.

Metallarda issiqlikning ko‘chishida panjaralarning tebranishidan tashqari, zaryadlangan zarrachalar – elektronlar ham qatnashadi. Metallarda elektronlar undan tashqari elektr toki tashuvchilar hamdir.

Yuqori haroratlarda issiqlik o‘tkazuvchanlikning elektronlarga tegishli qismi fononlarga tegishligidan ancha kattadir. Shunday qilib, metallar issiqlik o‘tkazuvchanligining metalmas qattiq jismlar issiqlik o‘tkazuvchanligidan yuqori bo‘lishining sababi metalmas jismlarda fononlar yagona issiqlik tashuvchilardir.

Metallarning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti -  $\kappa$  solishtirma elektr o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti  $\gamma$  ga proporsionaldir.

Shunday qilib, metallarning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti ( $\kappa$ ) ning solishtirma elektr o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti ( $\gamma$ ) ga bo‘lgan nisbati absolyut harorat ( $T$ ) ga to‘g‘ri proporsionaldir (Videman-Frans qonuni), ya’ni

$$\frac{\kappa}{\gamma} = 3 \left( \frac{K}{e} \right)^2 T , \quad (8)$$

bu yerda  $K=1,38 \cdot 10^{-23}$  J/K Bolsman doimiysi,  $e=1,6 \cdot 10^{-19}$  Kl-elektronning zaryadi.

### Usulning nazariyasi

Issiqlik miqdori, harorati  $T_0$  o‘zgarmas saqlanadigan issiqliq muhitdan, sovuqroq muhitga  $\Delta x$  qalinlikdagi jism orqali uzatilsa, sovuqroq muhit isiy boshlaydi. Sovuqroq muhit suv solingan kalorimetrdan iborat bo‘lsa,  $\Delta x$  qalinlikdagi jism orqali o‘tgan  $dQ$  issiqlik miqdori kalorimetrik tenglamadan aniqlanadi

$$dQ = (c_1 m_1 + c_2 m_2) dT , \quad (9)$$

bunda  $c_1$  – suvning solishtirma issiqlik sig‘imi,  $c_2$  – aralashtirgichli kalorimetning solishtirma issiqlik sig‘imi;  $m_1$  va  $m_2$  - suv va kalorimetning massasi;  $dT$  - suvli kalorimetr haroratining o‘zgarishi. Qisqa vaqt oralig‘ida qattiq jismning  $\Delta x$  qatlam sirtlaridagi haroratlar farqi ( $T_0 - T$ ) deyarli o‘zgarmas qolganligidan issiqlik o‘tkazuvchanlik jarayoni kvazistatsionar bo‘lganligidan, qattiq jism orqali o‘tgan issiqlik miqdori  $dQ$  Furye qonuniga binoan quyidagiga tengdir:

$$dQ = \kappa \frac{T_E - T}{\Delta x} S \cdot dt \quad (10)$$

bunda  $T_0$  va  $T$  – tekshirilayotgan qattiq jismning  $100^{\circ}\text{S}$  li bug‘ va kalorimetrik bilan tutashgan sirtlarning mos haroratlari;  $S$  - issiqlik o‘tayotgan qattiq jism sirtining yuzasi (1- rasm).

(9) va (10) tenglamalarni tenglashtirib, quyidagi ifodani olamiz

$$(c_1 m_1 + c_2 m_2) dT = \kappa \frac{T_B - T}{\Delta x} S \cdot dt \quad (11)$$

Bundan

$$(c_1 m_1 + c_2 m_2) \Delta x \frac{dT}{T_B - T} = \kappa \cdot S \cdot dt \quad (12)$$


Agar tekshirilayotgan jismning kalorimetrik bilan tutashgan qatlaming, ya’ni kalorimetrdagi suvning, harorati  $T_0$  dan  $T$  gacha  $\tau$  vaqt oralig‘ida o‘zgargan bo‘lsa, (12) ni integrallab, quyidagini topamiz:

$$\int_{T_0}^T (c_1 m_1 + c_2 m_2) \Delta x \frac{dT}{T_B - T} = \int_0^\tau \kappa \cdot S \cdot dt ,$$

bundan

$$(c_1 m_1 + c_2 m_2) \Delta x \cdot \ln \frac{T_B - T_0}{T_B - T} = \kappa \cdot S \cdot \tau \quad (13)$$

bu yerda  $T_0$  va  $T$  tajribani o‘lchash intervalidagi kalorimetrdagi suvning boshlang‘ich va oxirgi harorati.



Shunday qilib, tajriba asosida  $C_1, C_2, m_1, m_2, \Delta x, S$  larni va bug‘ning harorati  $T_b=100^{\circ}\text{S}$  ni hamda tajriba vaqtini  $\tau$  oralig‘idagi kalorimetrdagi suvning

boshlang‘ich va oxirgi harorati  $T_0$  va  $T$  larni bilgan holda (13) formula asosida qattiq jismning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti aniqlanadi.

### **Qurilmaning tuzilishi va o‘lchash usuli**

Tajriba qurilmasi 2-rasmda tasvirlangan A elektr bug‘latgich, B metal bug‘isitgich, V tekshirilayotgan qattiq jism va D calorimetrdan iboratdir. A elektr bug‘latgichdan rezina trubka orqali B idishga bug‘ning uzlusiz kelishi natijasida B idish devorlarining harorati tajriba paytida deyarli o‘zgarmasdan  $100^{\circ}\text{S}$  da saqlanadi. B idishning yuqori qismiga tekshiriladigan moddadan yasalgan V disk joylashtiriladi. D calorimetrdagi suvning haroratini o‘lchash uchun T termometr tushirilgan. V disk shaklidagi qattiq jismining  $\Delta x$  qalinligi, S kesim yuzasi shtangensirkul yordamida o‘lchanadi.

### **Ishni bajarish tartibi**

1. Texnik tarozi (yoki kvadrant tarozi) yordamida aralashtirgichli calorimetring massasi  $m_2$  o‘lchanadi.
2. Idishga suv solib, uning massasi  $m_1$  o‘lchanadi.
3. Shtangensirkul yordamida disk shaklidagi qattiq jismning qalinligi  $\Delta x$  va diametri  $d$  o‘lchanadi. Uning ko‘ndalang kesim yuzasi  $S$  hisoblanadi.
4. Elektr plitkasini tok manbaiga ulab, A bug‘ qozonchasida suv bug‘ga aylantiriladi. Bug‘ rezina trubka orqali B idishga kelib, idishning pastki qismidan bug‘ chiqqa boshlagach, T termometr yordamida har 2 daqiqadan oralatib calorimetrdagi suvning harorati o‘lchana boradi. Tajriba 20-30 daqiqa davom ettirilib, suv harorati T ning vaqt  $\tau$  ga bog‘lanish  $T = f(\tau)$  grafigi tuziladi.
5.  $T = f(\tau)$  grafikdan suvning bir tekis isishdan iborat bo‘lgan vaqtlar oraliqlarini ajratib olinib, unga mos kelgan boshlang‘ich  $T_{0i}$  va oxirgi  $T_i$  haroratlarning qiymatlari yozib olinadi.

Olingan tajriba natijalarining SI xalqaro o‘lchov birliklar tizimida ifodalangan qiymatlari 1-jadvalga yoziladi.

6. Tajribadan olingan 1- jadvaldagi kattaliklarning qiymatlari (13) formulaga qo‘yilib, qattiq jismning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti  $\lambda$  hisoblanadi va uning natijasi 1 va 2 jadvallarga yoziladi.

1- jadval

№	<b>C<sub>1</sub></b>	<b>C<sub>2</sub></b>	<b>m<sub>1</sub></b>	<b>m<sub>2</sub></b>	<b>Δx</b>	<b>d</b>	<b>S</b>	<b>τ<sub>i</sub></b>	<b>T<sub>0i</sub></b>	<b>T<sub>i</sub></b>	<b>Ж</b>
	j/kg.K	j/kg.K	kg	kg	m	m	m <sup>2</sup>	s	K	K	$\frac{J}{m \cdot s \cdot K}$
1.											
2.											
3.											
•											
•											

### O'lchash xatoliklarini hisoblash

O'lchash davomida o'lchash asboblari beradigan xatoliklardan boshqa har xil sistematik va qo'pol xatoliklar yo'qotilgan deb faraz qilib, bevosita o'lchash xatoliklari nazariyasining asosiy qoidalarini qarab chiqamiz.

1. Ayrim o'lchashlar natijalari ( $\bar{x}_1, \dots, \bar{x}_n$ )ning o'rtacha qiymati topiladi:

$$\langle \bar{x} \rangle = \frac{\bar{x}_1 + \bar{x}_2 + \dots + \bar{x}_n}{n} = \frac{\sum \bar{x}_i}{n} \quad (14)$$

2. O'lchash natijasida topilgan qiymatlar bir-biridan farqli bo'lib, ularning o'rtacha qiymatidan farqi ayrim o'lchashning absolyut xatoligi deyiladi:

$$\Delta \bar{x} = \langle \bar{x} \rangle - \bar{x}_i \quad (15)$$

3. Agar n ta takroriy o'lchash natijasida  $\Delta \bar{x}_n$  absolyut xatoliklar yuz bergan bo'lsa, o'lchashlarning o'rtacha absolyut xatoliklari quyidagicha topiladi:

$$\langle \Delta \bar{x} \rangle = \frac{|\Delta \bar{x}_1| + |\Delta \bar{x}_2| + \dots + |\Delta \bar{x}_n|}{n} \quad (16)$$

4. Aniqlangan kattalik  $\bar{x}$  ning haqiqiy qiymati o'rtacha  $\langle \bar{x} \rangle$  qymatidan  $\pm \langle \Delta \bar{x} \rangle$  qadar farq qiladi, ya'ni:

$$\bar{x} = \langle \bar{x} \rangle \pm \langle \Delta \bar{x} \rangle \quad (17)$$

5. Nihoyat, o'rtacha absolyut xatolik  $\langle \Delta \bar{x} \rangle$  ning topilgan kattalikning o'rtacha qiymati  $\langle \bar{x} \rangle$  ga nisbati  $\delta(\bar{x})$  ga o'lchashning o'rtacha nisbiy xatoligi deyiladi, ya'ni:

$$\delta(\bar{x}) = \frac{\langle \Delta \bar{x} \rangle}{\langle \bar{x} \rangle} = \frac{(\Delta \bar{x})}{\langle \bar{x} \rangle} \cdot 100 \% \quad (18)$$

Xatoliklarni hisoblash natijalari 2-jadvalga yoziladi.

2-jadval

Tartib raqami	$\bar{J}_i$	$\langle \bar{J} \rangle$	$\Delta \bar{J}_i$	$\langle \Delta \bar{J} \rangle$	$\bar{J}$	$\delta(\bar{J})$
	J/(m.s.K)					%
1						
2						
.						
.						
.						

### Nazorat savollari

1. Issiqlik o‘tkazuvchanlik hodisasini moddalarning molekulyar- kinetik nazariyasi asosida tushuntiring.
2. Issiqlik o‘tkazuvchanlik hodisasini ta’riflang.
3. Issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentini ta’riflang.
4. Suyuqlik va qattiq jismlarning issiqlik o‘tkazuvchanligi asosan gazlarnikidan qanday farq qiladi?
5. Gaz, suyuqlik va qattiq jismlarda issiqlik o‘tkazuvchanlik mexanizmini tushuntiring.
6. Harorat gradiyenti deb nimaga aytildi, u qanday yo‘nalgan va qanday birlikda o‘lchanadi?
7. Hisoblash formulasini isbotlang.
8. Gaz va qattiq jismlar issiqlik o‘tkazuvchanligi haroratga qanday bog‘liq?
9. Issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti qanday birliklarda o‘lchanadi?

### Adabiyotlar

1. Savelyev I.V. Umumi fizika kursi. T. O‘qituvchi 1973 § 112, 113.
2. Kikoin A.K., Kikoin I.K. Molekulyar fizika. T. O‘qituvchi 1978

#### 4 - laboratoriya ishi

### Qattiq jismlarning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentini harorat gradiyenti usulida aniqlash


**Ishning maqsadi:** Harorat gradiyenti usulida qattiq jismlarning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentini aniqlash.

**Kerakli asbob va materiallar:** Namunalar to'plami, kalorimetrik asbob, elektr plitkasi, bug'lovchi bachok (idish), rezinali naycha, termoparalar.

#### Asosiy nazariy ma'lumotlar

Harorat gradiyenti usulini oddiy tajribada (1-rasm) ko'rishimiz mumkin. 1 (a) rasmda ko'rsatilgan sterjenning bir uchi qaynayotgan suvli idishga, ikkinchi uchi esa harorati past bo'lgan suvli kalorimetrga botiriladi. Sterjen issiqlikdan izolatsiya qilib qo'yilgan.

Tajribadan oldin va bir necha vaqt  $d\tau$  dan so'ng kalorimetrik haroratini o'lchab,



1 - rasm

sterjenden o'tgan  $dQ$  issiqlik miqdorini aniqlash mumkin.

Agar sterjen ikki xil materialdan yasalgan bo'lib, AB kesma (1b-rasm) ularning chegarasi bo'lsa, unda quyidagi jarayon kuzatiladi. Tajriba boshlangandan bir necha vaqt o'tgandan keyin statsionar holat yuzaga keladi, ya'ni AB kesmaning (dS) yuzasiga yuqori haroratli jismidan kelayotgan  $dQ_1$  issiqlik miqdori shu kesmadan past haroratli jismga tarqalayotgan  $dQ_2$  issiqlik miqdoriga teng bo'ladi.

Shunday qilib  $dQ_1 = dQ_2$  bo'lganda

$$\kappa_1 \frac{dT_1}{d\ell_1} dS d\tau = \kappa_2 \frac{dT_2}{d\ell_2} dS d\tau \quad (1)$$

Bunda  $\ell_1$  va  $\ell_2$  – ikki xil materialdagi sterjenning uzunliklari. Tenglikning ikki tomonidagi  $dS d\tau$  larni qisqartirib yuborsak, quyidagi nisbatni hosil qilamiz

$$\frac{\kappa_1}{\kappa_2} = \frac{dT_2/d\ell_2}{dT_1/d\ell_1} = \frac{dT_2 \cdot d\ell_1}{dT_1 \cdot d\ell_2} \quad (2)$$


Bu bog'lanishdan ko'rindiki, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti katta bo'lgan materialdan tuzilgan sterjenda harorat tushuvi (harorat gradiyenti -  $\frac{dT}{d\ell}$ ) kichik bo'ladi

(issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti bilan harorat gradiyenti o'zaro teskari bog'langan).

### **Qurilmaning tuzilishi va o'lchash usuli**

Ushbu ishda qo'llaniladigan qurilma (2-rasm) yuqorida ko'rsatilgan prinsipga asoslangan. Asbob pastki A mis idishdan iborat bo'lib, undan sovuq suv oqib o'tadi va xuddi shunday B idishga qaynayotgan suvning bug'i kelib tushadi.

Bu ikkala idish orasiga har biriga  $t_1$ ,  $t_2$  va  $t_3$  termometrlar yoki termoparalar o'rnatilgan uchta qalin mis va o'rtadagi plastinkalar orasiga issiqlik o'tkazuvchanligi



**2-rasm**

$\alpha_1$  aniqlanishi kerak bo'lgan E modda qo'yilgan. O'rtadagi va pastki plastinka orasiga esa issiqlik o'tkazuvchanligi ( $\kappa_2$ ) ma'lum bo'lgan D jism qo'yiladi. Ikkala qatlamlar ko'ndalang kesim yuzalari mis plastinkalar ko'ndalang kesim yuzalariga  $S_1$ ,  $S_2$ ,  $S_3$  teng bo'ladi.

Tajriba boshlanishida termopara yoki termometr ko'rsatkichlari  $t_1$ ,  $t_2$  va  $t_3$  o'zgaradi, ammo biroz vaqt o'tishi bilan o'zgarmay qoladi, bu jarayonning statsionarligini bildiradi. Buning natijasida E va D moddalar orqali bir xil vaqtida bir xil issiqlik miqdori o'tadi. Tekshirilayotgan E qatlamdan  $d\tau$  vaqt oralig'ida o'tgan issiqlik miqdori:

$$dQ_1 = \frac{\kappa_1(T_1 - T_2)Sd\tau}{\ell_1}$$

$\ell_1$  - tekshirilayotgan E qatlamning qalinligi.

D qatlamdan  $d\tau$  vaqt oralig'ida oqib o'tgan issiqlik miqdori:

$$dQ_2 = \frac{\kappa_2(T_2 - T_3)Sd\tau}{\ell_2}$$

$\ell_2$  - D qatlamning qalinligi,  $dQ_1 = dQ_2$  bo'lganligi uchun

$$\kappa_1 = \frac{\kappa_2(T_2 - T_3)\ell_1}{\ell_2(T_1 - T_2)} \quad (3)$$

### Ishni bajarish tartibi

1. Tekshirilayotgan va ma'lum materiallarning  $\ell_1$  va  $\ell_2$  qalinligi o'chanadi.
2. Asbob chizmada ko'rsatilgandek yig'iladi.
3. A idishdan rakinaga bemalol suv chiqib ketadigan qilib vodoprovoddan sovuq suv ochib qo'yiladi.
4. Yuqoridagi B idishga bug'lovchi qurilmadan bug' yubo-riladi.
5. Bir-biriga jipslashgan qatlamlardan  $T_1, T_2, T_3$  vaziyatga ega bo'lgan barqarorlashgan statsionar jarayonda millivoltmetr ko'rsatishiga binoan termo EYUK aniqlanadi.

Olingan termo EYUK natijalari asosida graduirovka qilingan egri chiziq orqali pastki, o'rtadagi, yuqoridagi plastinkalarning  $T_1, T_2, T_3$  harorati aniqlanadi.

6. Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti ma'lum bo'lgan D modda va (3) formula orqali tekshirilayotgan materialning  $\chi_1$  issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti hisoblanadi.
7. Ma'lum va noma'lum materiallarning (D va E) joylarini o'zgartirib tajribani qaytariladi.

Tajriba asosida olingan natijalarni quyidagi jadvalga yoziladi va hisoblanadi.

jadval

Nº	EYUK1 mV	T <sub>1</sub> , K	EYUK2 mV	T <sub>2</sub> , K	EYUK3 mV	T <sub>3</sub> , K	$\ell_1$ , m	$\ell_2$ , m	$\Delta\alpha_{li}$	$\Delta\alpha_{li}$	< $\alpha$ >
1.											
2.											
3.											
.											
.											
.											
.											

## **Nazorat savollari**

1. Issiqlik o‘tkazuvchanlik hodisasini moddalarning molekulyar kinetik nazariyasi asosida tushuntiring.
2. Issiqlik o‘tkazuvchanlik hodisasini ta’riflang.
3. Issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentini ta’riflang.
4. Suyuqlik va qattiq jismlarning issiqlik o‘tkazuvchanligi gazlarnikidan qanday farq qiladi?
5. Gaz, suyuqlik va qattiq jismlarda issiqlik o‘tkazuvchanlik mexanizmini tushuntiring.
6. Harorat gradiyenti deb nimaga aytildi, u qanday yo‘nalgan va qanday birlikda o‘lchanadi?
7. Hisoblash formulasi isbotlang.
8. Gaz va qattiq jismlar issiqlik o‘tkazuvchanligi haroratga qanday bog‘liq?
9. Issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti qanday birlklarda o‘lchanadi?

## **Adabiyotlar**

1. Savelyev I.V. Umumiy fizika kursi. T. O‘qituvchi 1973 § 112, 113.
2. Kikoin A.K., Kikoin I.K. Molekulyar fizika. T. O‘qituvchi 1978, § 45, 46, 47, 50, 97, 140.
3. Telesnin R.V. Molekulyarnaya fizika. M. Vysshaya shkola, 1965 VI bob.

## 5 - laboratoriya ishi

### Termoparani darajalash va termoelektr yurituvchi kuchni aniqlash

**Kerakli asbob va materiallar:** Tayyor termopara, sezgirligi yuqori bo‘lgan galvanometr, termostat yoki isitgichli kalorimetr.

**Ishning maqsadi:** Qattiq jismlarda yuz beruvchi kontakt hodisalarini termopara yordamida va termoelektr yurituvchi kuchlarni aniqlash asosida o‘rganish.

#### Asosiy nazariy ma’lumotlar

Ikki xil metal sim uchlari kavsharlanganda ularning haroratiga va moddalarning kimyoviy tabiatiga bog‘liq holda erkin elektronlarining diffuziyalanishi sababli o‘tkazgichlarning uchlarida hosil bo‘lgan potensiallar farqiga kontakt potensiallar farqi deb ataladi. Bu hodisani birinchi marta 1797 yili italiyalik fizik A.Volta tajribada tekshirib, o‘zining quyidagi ikkita qonunini kashf qildi.

Voltaning birinchi qonuni: ikki har xil metal – o‘tkazgichlar tutashtirilganda, ular uchlarida hosil bo‘lgan kontakt potensiallar farqi ularning fizikaviy–kimyoviy xususiyatlariga va haroratga bog‘liqdir.

Voltaning ikkinchi qonuni: o‘zaro ketma-ket ulangan bir qancha metal o‘tkazgichlar uchlarida hosil bo‘lgan kontakt potensiallar farqi o‘zgarmas haroratda faqat eng chekkadagi o‘tkazgichlarning fizikaviy– kimyoviy xususiyatlariga bog‘liq. Volta metallarning shunday qatorini tuzdiki, bu qatorda har bir oldingi metal o‘zidan keyingilariga tutashtirilganda musbat zaryadlanar ekan. Volta qatori quyidagichadir: Sb-43; Fe-15; Mo+7,6; Cd+4,6; W+3,6; Cu+3,2; Zn+3,1  
 $\left( \frac{mKB}{\varepsilon_{pa\delta}} \right)$


Metallarning klassik elektron o‘tkazuvchanlik nazariyasiga binoan, tutashtirilgan ikki metal o‘tkazgich (1-rasm) uchlaridagi kontakt potensiallar farqi tashqi

$$\Delta\varphi_{tashqi} = -\frac{A_1 - A_2}{e}$$

va ichki


$$\Delta\varphi_{ichki} = \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{01}}{n_{02}}$$

kontakt potensiallar farqlarining yig‘indisiga tengdir, ya’ni



$$\Delta\varphi_{12} = \Delta\varphi_t + \Delta\varphi_i = -\frac{A_1 - A_2}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{01}}{n_{02}} \quad (1)$$

bunda  $A_1, A_2$  – birinchi va ikkinchi metaldan elektronning chiqish ishi,  $e$  – elektronning zaryadi,  $k$  – Bolsman doimiysi,  $T$  – absolyut harorat,  $n_{01}, n_{02}$  – birinchi va



ikkinchi o'tkazgichlardi erkin elektronlar konsentratsiyasi. (1) formula Volta birinchi qonuning matematik ifodasi bo'lib, haqiqatdan ham tutashtirilgan ikki o'tkazgich uchlari kontakt potensiallar farqi  $\Delta\varphi_{12}$  harorat  $T$  ga va ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari  $A_1, A_2, n_{01}, n_{02}$  ga bog'liqdir.


Volta ikkinchi qonunini isbotlash uchun, 2-rasmida tasvirlangan, o'zgarmas haroratda o'zaro ketma-ket ulangan o'tkazgich zanjirini qarab chiqaylik. (1) dan foydalanib quyidagini yozamiz:

$$\begin{aligned}\Delta\varphi_{14} = \Delta\varphi'_{12} + \Delta\varphi'_{23} + \Delta\varphi'_{34} &= -\frac{A_1 - A_2}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{01}}{n_{02}} - \frac{A_2 - A_3}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{02}}{n_{03}} - \\ &- \frac{A_3 - A_4}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{03}}{n_{04}}\end{aligned}$$

Bundan

$$\Delta\varphi_{14} = -\frac{A_1 - A_4}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{01}}{n_{04}},$$

bunda  $\Delta\varphi_{14}$  – kontakt potensiallar farqi oraliqdagi o'tkazgichlarning fizik-kimyoviy xususiyatlariga bog'liq emas. Agar bu o'zaro ketma-ket ulangan to'rtta o'tkazgichlarning uchlari tutashtirilib, yopiqzanjir hosil qilinsa (3rasm) u vaqtida (1) ga asoslanib quyidagi munosabat kelib chiqadi:



$$\begin{aligned}\Delta\varphi = \Delta\varphi'_{12} + \Delta\varphi'_{23} + \Delta\varphi'_{34} + \Delta\varphi'_{41} &= \frac{A_1 - A_2}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{01}}{n_{02}} - \frac{A_2 - A_3}{e} + \\ &+ \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{02}}{n_{03}} - \frac{A_3 - A_4}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{03}}{n_{04}} - \frac{A_4 - A_1}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{04}}{n_{01}} = 0\end{aligned}$$

Bundan ko'rindiki, kontaktlardagi haroratlar bir xil bo'lganda, yopiq zanjirda kontakt potensiallar farqi hosil bo'lmas ekan.

**Termoelektr hodisasi.** Kontaktlardagi haroratlar turlicha bo'lgan yopiq zanjirda noldan farqli bo'lgan **termoelektr kuch** yuzaga keladi. Agar ikkita metalldan yopiq zanjir tuzib payvandlangan uchlardan biri  $T_1$  haroratgacha sovutilib, ikkinchisi  $T_2$  haroratgacha isitsa, zanjirda termoelektr yurituvchi kuch hosil bo'ladi (1-rasm).

Har xil o'tkazgichlardan tuzilgan yopiq zanjirda termo EYUK ning hosil bo'lish effektiga termoelektr hodisa deyiladi. Termoelektr hodisasidan texnikada haroratni aniqlashda foydalaniladi. Bu maqsadda ikkita ikki xil metalldan yoki qotishmadan iborat termoelement – termoparadan o'lchashda foydalanish uchun u termometr

yordamida darajalanib, TEYUK ning haroratga bog'lanish grafigi olinadi. Termoparaning sezgirligi juda katta bo'ladi.

Masalan, temir-konstantan materiallardan tayyorlangan termopara 800 K gacha, platina va 10 % li radiy elementi qo'shilgan platina qotishmasidan tayyorlangan termopara 1800 – 2100 K gacha haroratni o'lhashi mumkin.

4-rasmida tasvirlangan ikkita ikki xil o'tkazgichdan hosil bo'lgan termoparamermoelementda hosil bo'lgan TEYUK, uning kontaktlaridagi  $\Delta\varphi'_{12}$  va  $\Delta\varphi'_{21}$  kontakt potensiallar farqlarining yig'indisiga teng

$$\varepsilon_T = \Delta\varphi_{12} = \Delta\varphi_{21} = -\frac{A_1 - A_2}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{01}}{n_{02}} - \frac{A_1 - A_2}{e} + \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{01}}{n_{02}} \quad (5)$$

bunda

$$\varepsilon_T = \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{01}}{n_{02}} (T_2 - T_1) = C(T_2 - T_1)$$

Bu yerda  $C = \frac{\kappa T}{e} \ln \frac{n_{01}}{n_{02}}$  - har bir juft o'tkazgich tizimi uchun xarakterli o'zgarmas

kattalik bo'lib, unga solishtirma termoelektr yurituvchi kuch deyiladi.

(5) dan termoparaning asosiy tavsifi C - solishtirma TEYUK quyidagiga teng bo'ladi


$$C = \frac{\varepsilon_T}{T_2 - T_1} \quad (6)$$

Solishtirma termoelektr yurituvchi kuch deb, termopara kontaktlarida temperatura farqi 1 K ga teng bo'lganda, hosil bo'lgan TEYUK teng bo'lgan kattalikka aytildi.

### **Qurilmaning tuzilishi va o'lhash usuli**

4-rasmida laboratoriyyada termoparani darajalash uchun mo'ljallangan qurilma sxemasi keltirilgan.

1. 4-rasmida ko'rsatilgan tajriba qurilmasining elektr sxemasi yig'iladi va yig'ilgan sxemaning to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilingach, termoparaning kavsharlangan uchlaridan biri ichida sovuq suv yoki muz bo'lgan idishga tushiriladi, ikkinchi uchi esa qizdiriladigan suyuqlik ichiga tushiriladi.
2. Boshlangich holda idishlar ichida suyuqliklarning harorati bir xil bo'lganligi uchun



**4-rasm**

$\Delta T=0$  va demak  $\varepsilon'_T = 0$  bo‘ladi.

3. Galvonometr strelkasi aniq nolga keltirilgach, muz yoki sovuq suvning harorati tajriba davomida o‘zgarmas saqlanadi.
4. Termostatdagi yoki ikkinchi idishdagi suyuqlik juda sekinlik bilan isitiladi va  $\Delta T_1=0$  holatdan boshlab, suyuqlik harorati to  $(90-100) \text{ } C^\circ$  ga ko‘tarilguncha har  $5 \text{ } C^\circ$  oraliqda mazkur haroratga mos kelgan galvonometrning ko‘rsatishi olinadi va  $\varepsilon'$  millivolt (mV) larda ifodalanib, jadvalga yoziladi.

№	$t$	$\Delta t$	$\varepsilon'_T$	$\varepsilon''_T$	$\langle \varepsilon_T \rangle$	$C_i$	$\langle C \rangle$	$\Delta C_i$	$\langle \Delta C \rangle$	$\delta$
			$^{\circ}\text{C}$	$^{\circ}\text{C}$	$m\text{V}$	$m\text{V}$	$m\text{V}$	$\frac{m\text{V}}{\text{grad}}$	$\frac{m\text{V}}{\text{grad}}$	%
1		0								
2		5								
3		10								
4		15								
5		..								
.		..								
.		..								
16		75								
17		80								

5. Isitkichni tok manbaidan uzib, suvning asta-sekin sovushiga imkon beriladi va 4-banddagи oxirgi qiymatdan haroratning pasayishi tomonga qarab ularga mos kelgan galvonometrning ko‘rsatishlari ( $\varepsilon''$ ) jadvalga yozib boriladi.
6.  $\langle \varepsilon_T \rangle$ ning  $\Delta t$  ga bog‘lanish grafigi  $\varepsilon_T=f(\Delta t)$  chiziladi.
7. Jadvaldagи qiymatlardan foydalanib, termoparaning solishtirma termoelektr yurituvchi kuchi  $C_i$  ning qiymati (6) formula asosida hisoblanadi va uning o‘rtacha qiymati  $\langle C \rangle$  topiladi.
8. Tajriba paytida qilingan xatoliklar - absolyut xatolik  $\Delta C_i = \langle C_i \rangle - C_i$ , o‘rtacha absolyut xatolik  $\langle \Delta C \rangle = \frac{\varepsilon \cdot C_i}{n}$  va o‘lchashning nisbiy xatoligi  $\delta = \frac{\langle \Delta C \rangle}{\langle C \rangle} \cdot 100\%$  hisoblanadi.

### Nazorat savollari

1. Metallardagi kontakt potensiallar farqini tushuntiring.
2. Voltaning birinchi va ikkinchi qonunlarini ta’riflang.
3. Volta qatorlari nima?

4. Ichki va tashqi kontakt potensiallar farqi nima?
5. Termoparani darajalash deganda nimani tushunasiz?
6. Termoelektr yurituvchi kuch nima? U qanday aniqlanadi?
7. Termopara nima? Termobatareya-chi? Ular qayerda ishlataladi?
8. Termoparaning solishtirma termoelektr yurituvchi kuchi deb, nimaga aytildi?

### **Adabiyotlar**

1. 1.Savelyev I.V. Umumiy fizika kursi. T.2. Toshkent. 1975.
2. Епифанов Г.И. Физика твердого тела. М. Высшая школа. 1977. стр.229-233.

## 6 - laboratoriya ishi Fotoqarshilikni o'rganish

**Kerakli asbob va materiallar:** fotoqarshilik, yorug'lik manbai, tok manbai, reostat, voltmetr, mikrovoltmetr, kalit

**Ishning maqsadi:** Fotoqarshilikning volt-amper va yorug'lik tavsiflarini (xarakteristikalarini) o'rganish, uning solishtirma sezgirligini hisoblash, qarshilikning karrali o'zgarishini aniqlash

### Asosiy nazariy ma'lumotlar

Ichki fotoeffekt ta'sirida ishlaydigan yarim o'tkazgich elementlar fotoqarshiliklar (FQ) deb ataladi. Ichki fotoeffekt yorug'lik kvanti yutilishidagi energiya hisobiga elektronlarning valent zonadan o'tkazuvchanlik zonasiga o'tishi bilan bog'liq. Aralashmali yarim o'tkazgichlarda ma'lum sharoitlarda elektronlar valent zonadan aralashma sathiga o'tishi yoki aralashma sathidan o'tkazuvchanlik zonasiga o'tishi mumkin. Bu o'tishlar natijasida tok tashuvchilar (elektronlar va kovaklar) soni ortadi hamda yoritilgan yarim o'tkazgichning elektr o'tkazuvchanligi oshadi.

FQ ning sezgirligi fotoelementlarga nisbatan juda yuqoridir. FQ signal berish va avtomatlashtirishda keng qo'llaniladi hamda yorug'lik nurlanishini o'lchashda foydalilanadi. FQ ni tavsiflovchi asosiy tavsiflar: volt-amper, yorug'lik, spektral va chastotaviy tavsiflardir.

**1. Volt-amper tavsifi** fototok  $I_F$  ning (o'zgarmas yorug'lik oqimidagi tokning yoki qorong'ulikdagi tokning) berilgan  $U$  kuchlanishga bog'lanishini ifodalaydi. Ko'pchilik FQ lar uchun yuqoridagi bog'lanish ish rejimida chiziqlidir. Fototok yorug'lik toki bilan qorong'ulik toki orasidagi farqdan topiladi

$$I_F = I_{yorug'} - I_q \quad (1)$$

**2. Yorug'lik tavsifi** fototokning berilgan o'zgarmas kuchlanishda FQ ga tushayotgan spektral tarkibi o'zgarmas bo'lgan yorug'lik oqimiga bog'lanishini ifodalaydi. FQ ning yorug'lik tavsifi chiziqli emas.

**3. Spektral tavsif** FQ sezgirligining berilgan kuchlanish va o'zgarmas yorug'lik oqimida yorug'likning to'lqin uzunligiga bog'lanishini ko'rsatadi.

**4. Chastotaviy tavsif** FQ sezgirligining o'zgarmas yorug'lik oqimida yorug'lik chastotasiga bog'lanishini ifodalaydi.

FQ ning asosiy parametrlariga solishtirma, spektral, integral sezgirlik, qorong'ulik qarshiligi, qarshilikning karrali o'zgarishlari kiradi. FQ ning sezgirligini aniqlashda fototokning tushayotgan yorug'lik oqimining spektral tarkibiga va miqdoriga, shuningdek berilgan kuchlanishning kattaligiga bog'liqligini hisobga olish kerak.

Solishtirma sezgirlik  $K$  quyidagi tenglikdan aniqlanadi

$$K = \frac{I_F}{dU} = \frac{I}{ESU} \quad (2)$$


bunda  $E$  – FQ ning yoritilganligi;  $S$  – FQ ning yorug‘lik tushayotgan yuzasi;  $U$  – kuchlanish. Ushbu ishda yoritilganligi 200 lk, harorati 250 K bo‘lgan rangli yorug‘lik nurlantiruvchi manbadan foydalaniladi.

Integral sezgirlik ( $\gamma$ ) solishtirma sezgirlikning ishda qo‘llanilayotgan kuchlanishga ko‘paytmasi bilan aniqlanadi:

$$\gamma = KU \quad (3)$$

### Spektral sezgirlik.

Har xil yarim o‘tkazgichlardan tayyorlangan FQ larning berilgan monoxromatik nurlanishga nisbatan sezgirligi turlicha bo‘ladi. Shuning uchun FQ ning spektral sezgirligi eng asosiy tavsiflardan biri bo‘lib hisoblanadi. Buni bilish FQ ni qaysi sohada qo‘llash mumkinligini aniqlashga imkon beradi. Spektral sezgirlikni fotoqarshilikning spektral tavsifi ko‘rsatadi. 1-rasmda har xil materiallardan tayyorlangan fotoqarshiliklar uchun nisbiy birliklarda tok kuchining tushayotgan yorug‘lik to‘lqin uzunligiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan.



1 - rasm

200 lk yoritilganlik olinganda 30 s dan keyin 20°S haroratdagi FQ ning qarshiligi qorong‘ulik qarshiligi  $r_q$  deyiladi. Qarshilikning karrali o‘zgarishi deb  $\frac{r_q}{r_y}$  - FQ qorong‘ulik qarshiligining 2850 K haroratda rangli yorug‘likka ega bo‘lgan yoritilganligi 200 lk bo‘lgan yorug‘lik oqimining ta’sirida bo‘lgan FQ qarshiligiga nisbatiga aytildi.

FQ ning ma’lum qiymatlarida uning parametrlari o‘zgarmas bo‘lib, ko‘rsatilgan ishlatish muddatida foydalanish mumkin bo‘lgan kuchlanishga ishchi kuchlanish deyiladi. Eng ko‘p tarqalgan FQ turlari FS-A1, FS-A4 oltingugurtli qo‘rg‘oshindan, FS-YE2 oltingugurtli vismutdan, FS-K1, FS-K2, FSK-M1, FSK-M2 oltingugurtli kadmiydan tayyorlangan. Agar FQ nomlariga M harfi qo‘silsa, FQ monokristalldan yasalgan bo‘ladi.


## Qurilmaning tuzilishi va o'lchash usuli

FQ silliqlangan taglik (1) ustiga surtilgan yarim o'tkazgich (2) qatlamdan hamda ikkita tok o'tkazuvchi (3) elektrodlardan iborat bo'lgan asbobdir (2-rasm). FQ ning qabul qiluvchi yuzasi odatda shaffof lak bilan himoya qilinadi, u kvadrat, to'rtburchak yoki aylana shaklida tayyorlanadi. Monokristalli FQ larda yarim-o'tkazgich qatlami monokristall bilan almashtiriladi.


### 1-vazifa

#### FQ ning volt-amper va yorug'lik tavsiflarini olish

- 3-rasmda ko'rsatilgan sxemaga qarab elektr zanjiri yig'iladi.
- FQ ning qorong'ulik volt-amper tavsifi olinadi, bunda yorug'lik manbaini yoqmasdan, FQ ga berilayotgan kuchlanishni o'zgartirib tok kuchining qiymatlari yozib boriladi. Natijalar 1(a)-jadvalga yoziladi.



2 - rasm



3 - rasm

- Yorug'lik manbai ulanadi. O'zgarmas ( $E = \text{const}$ ) yoritilganlikda (FQ bilan yorug'lik manbai orasidagi  $l$  masofa o'zgarmas) kuchlanishni o'zgartirib, FQ yoritilgan tok kuchining qiymatlari olinadi. Natijalar 1(b)-jadvalga yoziladi. (1) ifodadan foydalanib  $I_F$  topiladi.
- Qorong'ulik toki va fototokning kuchlanishga bog'lanish grafiklari chiziladi,  $I_q = f(U)_E$ ,  $I_F = f(U)_E$
- O'zgarmas kuchlanishda  $l$  masofani o'zgartirib har xil yoritilganlik uchun  $E = \frac{I_{yk}}{l^2}$  ( $I_{yk}$ -yorug'lik kuchi) tok kuchining qiymatlari o'lchanadi. Olingan natijalar 1(v)-jadvalga yoziladi.
- Fototok bilan yoritilganlik orasidagi  $I_F = f(E)$  bog'lanish grafigi chiziladi.

1-jadval

a) $E = 0$		b) $E = \text{const}$		v) $U = \text{const}$		
Nº	$U_q, V$	$I_q, A$	$l, m$	$U_y, V$	$I_y, A$	$I_F, A$
1						
2						
.						
.						
.						

**2-vazifa****Fotoqarshilikning solishtirma sezgirligi va qarshiligining o‘zgarish darajasini aniqlash**

1. FQ ga berilgan ( $U$ ) kuchlanishning bir xil qiymatida,  $I_y$ -yoritilganlik toki (uning sirti 200 lk yoritilganlik qiymatida yoritilganda) va  $I_q$  -qorong‘ulik toki ( $E=200$  lk yoritilganlik ta’siri olib tashlangandan 30 s o‘tgandan keyin) o‘lchanadi. Bu ( $U$ ) kuchlanishning 3 ta qiymatida bajariladi.

2. Qarshilikning o‘zgarish karraligini quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi

$$\frac{r_q}{r_y} = \frac{I_y}{I_q}$$

3. (2) ifodadan foydalanib FQ ning solishtirma sezgirligi ( $K$ ) hisoblanadi. Hisoblash natijalari 2-jadvalga yoziladi.

Izoh: O‘lchashlarni bajarishdan oldin FQ sirtining yoritilganligi 200 lk bo‘lgan masofa luksmetr yordamida yoritilganlik o‘lchanib aniqlanadi va belgilab qo‘yiladi.

2-jadval

Nº	$E, lk$	$U, V$	$I_y, A$	$I_q, A$	$\frac{r_q}{r_y} = \frac{I_y}{I_q}$	$K$
1						
2	200					
.						
.						
.						

**Nazorat savollari**

1. Ichki fotoeffekt deb nimaga aytildi?

2. Ichki va tashqi fotoeffekt o‘rtasida qanday farq bor?
3. Fotoqarshilik deb nimaga aytildi?
4. Fotoqarshiliklar qayerlarda qo‘llaniladi?
5. Fotoqarshilikning asosiy tavsiflari haqida tushuncha bering?
6. Fotoqarshiliklarni o‘rganish uchun qanday qurilmadan foydalilanildi?

### **Adabiyotlar**

1. Savelyev I.V. "Umumiy fizika kursi" T.2 Toshkent. "O‘qituvchi", 1975
2. Епифанов Г.И. «Физика твердого тела» Москва «Высшая школа» 1965

## 7 - laboratoriya ishi

### Yarim o'tkazgich moddalar qarshiligining haroratga bog'liqligini o'rghanish va uning man etilgan zona kengligini aniqlash

**Kerakli asbob va materiallar:** elektron termometr, Ommetr, kuchlanishni stabillashtiradigan tok manbai, yarim o'tkazgich modda.

**Ishning maqsadi:** laboratoriya ishini bajarib, talaba qattiq jismlarning zonalar nazariyasini o'rghanishi, metallar va yarim o'tkazgichlar qarshiliklarini haroratga bog'lanisini bilishi va tushuntirishi kerak.

#### Asosiy nazariy ma'lumotlar

Qattiq jismlar elektr o'tkazuvchanligiga qarab 3 guruhga bo'linadi. Elektr o'tkazuvchanligi  $\sigma = 10^5 \div 10^7 \text{ Om}^{-1} \cdot \text{m}^{-1}$  ga teng bo'lgan moddalar o'tkazgichlar yoki metallar deyiladi. Elektr o'tkazuvchanligi  $\sigma = 10^{-8} \div 10^{-15} \text{ Om}^{-1} \cdot \text{m}^{-1}$  bo'lgan moddalar dielektriklar yoki izolyatorlar deyiladi va elektr o'tkazuvchanligi bular oralig'ida bo'lgan moddalar yarim o'tkazgichlar deb atalib, ularning elektr o'tkazuvchanligi  $\sigma = 10^{-3} \div 10^4 \text{ Om}^{-1} \cdot \text{m}^{-1}$  ga tengdir.

Yarim o'tkazgichlar va metallarning elektr o'tkazuvchanligini solishtirib, bular o'rtasidagi tafovutni ko'rib chiqamiz.

Hamma metallarda harorat ortishi bilan ularning qarshiligi ortib boradi, ya'ni

$$R(t) = R_0(1 + \alpha t)$$


bu yerda  $R_0$  - harorat  $t=0^\circ \text{C}$  bo'lganda o'tkazgichning qarshiligi va  $R(t)$ - esa  $t^\circ \text{C}$  haroratdagi qarshilik,  $\alpha$  - metall qarshiligining harorat koeffitsienti.

Yarim o'tkazgichlarda harorat ortishi bilan ularning qarshiligi kamayib boradi.

$$R(T) = R_0 e^{\frac{b}{T}}$$

bu yerda  $R_0$  va  $b$  - berilgan yarim o'tkazgich moddalar uchun o'zgarmas kattalikdir.

1-rasmida metall va yarim o'tkazgich moddalar uchun qarshiliklarni haroratga bog'lanish grafiklari berilgan.



1 - rasm

Metallarning klassik nazariyasiga ko'ra metallarda elektr tokini tashuvchi bo'lib elektronlar va ba'zi metallarda kovaklar xizmat qiladi.

Agar metallarga ma'lum yo'naliishda tashqi elektr maydoni qo'yilsa zaryadlangan zarrachalar maydon yo'naliishiga mos ravishda o'zlarining issiqlik

harakat tezliklariga ma'lum tartibli qo'shimcha tezlik oladi. Natijada metallardagi hamma erkin elektronlar tashqi maydon ta'sirida metallarning bir qismidan ikkinchi qismiga qarab ko'chib boradi, demak metallarda elektr toki hosil bo'ladi. Bu tok

$$j = en\Delta\vartheta_g \quad (1)$$

ga tengdir. Bunda  $e$  – elektron zaryadi. Elektr maydoniga kiritilgan o'tkazgichning elektronlari maydon ta'sirida uning yo'naliishiga qarama-qarshi  $a$  tezlanish oladi. Elektronga ta'sir etuvchi kuch  $\vec{F} = \vec{eE}$  bu formuladan  $ma = eE$  tezlanishni topamiz.

$$a = \frac{eE}{m} \quad (2)$$

Metallarning klassik nazariyasiga ko'ra metaldagi o'tkazuvchi elektronlar tabiatи ideal gaz molekulalariga o'xshagan deb faraz qilinadi. Elektronlar xaotik harakat davomida bir-biri bilan va kristal panjara bilan to'qnashishi mumkun. To'qnashish orasidagi vaqtarda ular deyarli erkin harakatlanib, o'rtacha  $A$  yo'lni bosib o'tadi. Elektron gazga gazlarning kinetik nazariyasini tatbiq etish mumkun. Bu holda elektronlarning issiqlik harakati o'rtacha tezligining qiymatini hisoblash mumkin. ya'ni

$$\langle \vartheta \rangle = \sqrt{\frac{8kT}{\pi m}}, \quad \text{bunda } k=1,38 \cdot 10^{-23} \text{ J/K}, \quad m=9,1 \cdot 10^{-31} \text{ kg}$$

va uy haroratini  $T \sim 300$  K deb olib, elektronlarning o'rtacha tezligini hisoblaymiz.

$$\langle \vartheta \rangle = \sqrt{\frac{3 \cdot 1,38 \cdot 10^{-23} \cdot 300}{3,14 \cdot 9,1 \cdot 10^{-31}}} \approx 10^5 \text{ m/s}$$

Bunday tezlik bilan xaotik harakat qiluvchi elektronlarga endi elektr maydoni ta'sir etsa ular tartibli harakat qilib, biror tezlikka erishadi. Bu tartibli harakatning tezligi dreyf tezlik deyiladi. Tok zichligini hisoblashdagi  $\Delta\vartheta_g$  bu *dreyf* tezligidir.

Elektronning kristall panjara ioni bilan o'zaro to'qnashuvida elektronning tartibli harakat tezligi nolga teng bo'ladi. Maydon kuchlanganligi o'zgarmas bo'lganda elektron yugurishining oxuridagi tezligi  $\vartheta = a\tau$  ga teng bo'ladi. Bu yerda  $\tau$  - elektronning panjara ionlari bilan o'zaro ikkita ketma-ket urilishi uchun ketgan vaqt.

Agar elektronlarning tezliklar bo'yicha taqsimotini etiborga olmasak va ularning barchasini bir xil qiymatli  $\vartheta$ -tezlik bilan harakat qiladi deb  $\tau = \lambda/\vartheta$  ni olishimiz mumkun. Bunda  $\lambda$  - erkin yugurish yo'lining o'rtacha qiymati. Bu holda tezlik uchun (2) formulani e'tiborga olib, quyidagini yozish mumkun

$$U_{\max} = a\tau = \frac{eE\lambda}{m\vartheta} \quad (3)$$

Yugurish vaqtida  $\vartheta$  tezlik chiziqli o'zgaradi. Shuning uchun uning o'rtacha qiymati maksimal qiymatning yarmiga teng

$$U = \frac{1}{2} U_{\max} = \frac{eE\lambda}{2m\vartheta} \quad (4)$$

Bu ifodani (1)ga qo'ysak

$$j = \frac{ne^2 \lambda}{2m\vartheta} E \quad (5)$$

Bu formulani Om qonunining differensial ko'rinishi  $j = \sigma E$  bilan solishtirib

$$\sigma = \frac{ne^2 \lambda}{2m\vartheta} \quad (6)$$

ni hosil qilamiz.

Demak, metallarning elektr qarshiliklari erkin elektronlarning metallning kristal panjara tugunlarida joylashgan ionlari bilan to'qnashishlari natijasida yuzaga keladi.

(4) formuladan  $\mu = \frac{U}{E} = \frac{e\lambda}{2m\vartheta}$ . Bu yerda  $\mu$  - elektronlarning harakatchanligi deyiladi,  $U$ -elektronlarning dreyf tezligi.

Maydon kuchlanganligining bir-birlikka o'zgarishiga mos kelgan dreyf tezligiga teng kattalik zarrachalarning harakatchalligi deyiladi.

Xulosa qilib, shuni aytish mumkunki, metallardagi elektr o'tkazuvchanlik zarrachalarning konsentratsiyasiga, zaryadiga va ularning erkin yugurish yo'liga to'g'ri va zarrachalarning massasi va issiqlik harakat tezligiga teskari proporsionaldir.

Metallarning klassik elektron nazariyasida ulardagagi erkin elektronlarni oddiy molekulyar zarracha kabi faqat kristall panjara tugunlari bilan ta'sirlashadi, shuning natijasida metallarning qarshiligi vujudga keladi, deb tushuntiriladi. Kvant nazariyasiga ko'ra elektron, to'lqin xususiyatlariga ega bo'lgan zarrachadir. Elektronning metall ichidagi harakati elektron to'lqinlarining metall ichidagi tarqalishi deb qaralib, bu to'lqinlarning uzunligi de-Broyil to'lqin uzunligiga tengdir.

Kvant nazariyasiga ko'ra elektronlarning metall ichidagi erkin yugurish yo'li

$$\bar{\lambda} = \frac{E_{el}d}{\pi n k T} \quad (7)$$

Bu yerda  $E_{el}$  – elastiklik moduli,  $d$ -kristall panjara doimiysi,  $n$  – metall atomlarining konsentratsiyasi.

(7) formulani (6)ga qo'yib

$$\sigma = \frac{e^2 E_{el} d}{m \vartheta \pi k T} \quad (8)$$

ni hosil qilamiz. Bu formula aynan tajriba natijalariga mos keladi.


Kvant nazariyasiga ko'ra kristall jismdagi elektronlar energiyasi xuddi atomdagi elektron energiyasi kabi kvantlanish xususiyatiga ega. Elektronlar energiyasi energetik sath deb ataluvchi faqat diskret qiymatlarni qabul qila olishi mumkun. Kristallardagi ruxsat etilgan energetik sathlar zonalarga gruhlanadi.

2-rasmida atomlar orasidagi  $r$  masofaning funksiyasi sifatida turli sathlarning bo'linishi ko'rsatilgan.  $r_1$  va  $r_2$  ikki xil kristalldagi atomlar orasidagi masofaga mos keladi.

Kristall tuzilishida valentzona undan keyin keladigan o'tkazuvchanlik zonasiman etilgan bilan ajralib turadi. Valent zona o'tkazuvchanlik zonasi orasidagiman etilgan zona judakichik bo'lsa, bunday zonalar qo'shilib ketgandek bo'ladi yoki o'tkazuvchanlik zonasi elektronlar bilan qisman to'ldirilgan, ya'ni ikki energetik zonaning qo'shilib ketishi kuzatiladigan kristallar elektr tokini o'tkazadi. Bular metallar guruhidir.


Valent zona bilan o'tkazuvchanlik zonasi man etilgan zona bilan ajralgan kristallar dielektriklar yoki izolyatorlar deyiladi.

Man etilgan zonaning kengligi  $\Delta W$  ( $3 \text{ eV}$ ) kichik bo'lgan kristallar yarim o'tkazgichlar deyiladi (3-rasm).



2 - rasm

yaxshi



3 - rasm

Agar biror usul bilan valent zonadagi elektronning energiyasini  $\Delta W$  dan oshirsak, u o'tkazuvchanlik zonasiga o'tib ketadi. Valent zonada qolgan bo'sh o'rinni o'zini musbat zarracha kabi tutadi va o'tkazuvchan kovak (teshik) deb atalib o'tkazuvchanlikda ishtirok etadi. Hech qanday aralashmasi bo'limgan toza sof yarim o'tkazgich xususiy yarim o'tkazgich deyiladi. Yarim o'tkazgichdagi aralashmalar ularning elektr o'tkazuvchanligini keskin o'zgartirib yuboradi. Xususiy yarim o'tkazgichlarda zaryad tashuvchilarning konsentratsiyalari bir-biriga teng  $n = p$ . Yarim o'tkazgichlardi tokning zichligi quyidagi formula orqali topiladi:

$$j = ne^-U_n + pe^+U_p; |e^-| = |e^+|; n = p$$

bo'lgani uchun  $\mu_n$  va  $\mu_p$  elektron va kovaklarning harakatchanligi

$$j = n_i e(\mu_n + \mu_p)E; \quad \sigma = ne(\mu_n + \mu_p) \quad (9)$$

Yarim o'tkazgichlardagi zaryad tashuvchilarining konsentratsiyasi xususiy yarim o'tkazgichlar uchun

$$\left. \begin{aligned} n &= 2 \frac{(2\pi m_n^* kT)^{3/2}}{h^3} \cdot e^{\frac{\mu}{kT}} \\ p &= 2 \frac{(2\pi m_p^n kT)^{3/2}}{h^3} \cdot e^{-\frac{\Delta E + \mu}{kT}} \end{aligned} \right\} \quad (10)$$

$$\text{bu yerda } \mu = \frac{\Delta W}{2} + \frac{3}{4} kT \ln \frac{m_p^n}{m_n^*} \quad (11)$$

Fermi sathi aralashmali yarim o'tkazgichlar uchun. Donor yarim o'tkazgichlar uchun

$$\left. \begin{aligned} n &= \sqrt{2N_d} \frac{(2\pi m_n kT)^{3/4}}{h^{3/2}} e^{-\frac{\Delta W_d}{kT}} \\ p &= \sqrt{2N_A} \frac{(2\pi m_p kT)^{3/4}}{h^{3/2}} e^{-\frac{\Delta W_A}{kT}} \end{aligned} \right\} \quad (12)$$


$$\mu = \frac{\Delta E_d}{2} + \frac{kT}{2} \ln \left[ \frac{N_d \cdot h^3}{2(2\pi m_n kT)^{3/2}} \right] \quad (13)$$

(10) yoki (12) va (9) formulaga qo'yib, xususiy va aralashmali yarim o'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligi uchun quyidagi formulalarni hosil qilamiz, xususiy yarim o'tkazgichlar:

$$\sigma_i = \sigma_0 e^{-\frac{\Delta W}{2kT}}; \quad \ln \sigma_i = \ln \sigma_0 - \frac{\Delta W}{2kT} \quad (14)$$

va aralashmali yarim o'tkazgichlar

$$\sigma_n = \sigma'_0 e^{-\frac{\Delta W_{ap}}{2kT}}; \quad \ln \sigma_n = \ln \sigma'_0 - \frac{\Delta W_{ap}}{2kT} \quad (15)$$



4 - rasm

(14) va (15) formulalardagi  $\frac{\Delta W}{2k}$  va  $\frac{\Delta W_{ap}}{2k}$  xususiy va aralashmali yarim o'tkazgichlar uchun har xil qiymatlarni beradi va quyidagi grafikdan topiladi (4-rasm)

$$\frac{\Delta W}{2K} = \operatorname{tg} \alpha_1, \quad \frac{\Delta W_{ar}}{2K} = \operatorname{tg} \alpha_2 \quad (16)$$

(16) formuladan

$$\Delta W = 2K \cdot \operatorname{tg} \alpha_1; \quad \Delta W_{ar} = 2K \cdot \operatorname{tg} \alpha_2 \quad (17)$$

### **Qurilmaning tuzilishi va o'lchash usuli**

(14) formulani e'tiborga olib xususiy yarim o'tkazgich umumiyligining haroratga bog'lanish formulasini yozamiz:

$$R(T) = \rho(T) \frac{\ell}{S} = \frac{1}{\sigma(T)} \cdot \frac{\ell}{S} = R_0 e^{\frac{\Delta W}{2kT}} \quad (18)$$

bu yerda  $R_0 = \frac{1}{\sigma} \cdot \frac{\ell}{S} = \text{const}$  haroratga deyarli bog'liq bo'lamagan o'zgarmas son.

(18) formulani ikki harorat  $T_1$  va  $T_2$  lar uchun logarifmlab  $R_1$  va  $R_2$  larning logarifmlarini hosil qilamiz

$$\left. \begin{aligned} \ln R_1 &= \ln R_0 + \frac{\Delta W}{2k} \cdot \frac{1}{T_1}; \\ \ln R_2 &= \ln R_0 + \frac{\Delta W}{2k} \cdot \frac{1}{T_2} \end{aligned} \right\} \quad (19)$$

Bu tenglamalar tizimidan  $R_0$  ni yo'qotib  $\Delta W$  ga nisbatan yechamiz:

$$\ln R_1 - \ln R_2 = \frac{\Delta W}{2k} \left( \frac{1}{T_1} - \frac{1}{T_2} \right)$$

va bu yerdan

$$\Delta W = \frac{2k(\ln R_1 - \ln R_2)}{\frac{1}{T_1} + \frac{1}{T_2}} \quad (20)$$


Yarim o'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligi metallarnikidan farq qilib, ular harorat ortishiga qarab keskin kamayib ketadi. Chunki, yarim o'tkazgichlarda zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi harorat o'zgarishiga kuchli bog'liq, ya'ni eksponensial bog'lanishda.

Haroratga kuchli bog'lanishda bo'lgan yarim o'tkazgich qarshiliklari termistorlar deyiladi.

Qurilmaning prinsipial sxemasi 5-rasmida berilgan.

Labaratoriya qurilmasi 4 qismdan iborat

- 1) Qizitgich vazifasini spool (keramik) qarshilik bajaradi. Bu qarshilikning o'rtasi kovak bo'lib unga tekshirilayotgan yarim o'tkazgich va elektron termometr (termodatchik - issiqlik datchigi) joylashtiriladi.
- 2) Isitgichning haroratini aniqlash uchun mikrosxemalar asosida yig'ilgan elektron termometr;
- 3) Yarim o'tkazgichlarning qarshiliginini o'lchash uchun Ommetr;
- 4) Kuchlanishni stabillashtiradigan tok manbai. Tok manbai ikkilamchi o'ramlari ikkita bo'lgan pasaytiruvchi transformatorga ega. Uning birinchi o'ramlaridan isitgichga kuchlanish beriladi, ikkinchi o'ramlari elektron termometrga kuchlanish beradigan stabilizatorga ulanadi.



5 - rasm

Asbobning shkalasi Selsiy graduslarida va kiloOmlarda graduirovka qilingan va qurilmaning oldingi qismiga o'rmatilgan, shuning uchun to'g'ridan-to'g'ri haroratni va aniqlanayotgan yarim o'tkazgich namunasining qarshiliginini o'lchash mumkun.

### Ishni bajarish tartibi

1. Laborant ishtirokida qurilmani tokka ulang.
2. Ulang (ВКЛ) degan kalitni ulang.
3. R va T larning boshlang'ich ko'rsatgichlarini 1-jadvalga yozing.
4. 44 Istgich(нагр) degan tumblerni ulang va elektron termometr ko'rsatgichlarini va bunga mos kelgan qarshiliklarini har  $5^{\circ}$  dan  $60^{\circ}\text{C}$  gacha yozib boring .
5. Isitgich (нагр) tumblerini uzib qo'ying.
6. Sovutgich (охл.) degan kalitni ulang va yarim o'tkazgich soviyotgan vaqtda o'lchashlarni davom ettiring. 4-banddagi holatlarda ommetrning ko'rsatishlarini yozib oling.
7. 1-jadvalni to'ldiring.
8.  $R=f(T)$  funksiyaning grafigini chizing va tekshiring.
9. O'qituvchi grafikni imzolayotgan vaqtda man etilgan zona kengligini hisoblashni 3ta nuqtasini ko'rsatadi (20 formulaga asosan).
10.  $\Delta W$  ning qiymatlarini elektron voltlarda ifodalang va 2-jadvalni to'ldiring.
11.  $\Delta W$  ning o'rtacha qiymatini topib, xatoliklarni hisoblang.

1-jadval

$t, {}^{\circ}\text{C}$	$25^{\circ}$	$30^{\circ}$	$35^{\circ}$	$40^{\circ}$	$45^{\circ}$	$50^{\circ}$	$55^{\circ}$	$60^{\circ}$
T.k								
$R_{is}$								
$R_{sov}$								
$R_{o'r}$								

2-jadval

$\text{№}$	$R$	$\ln R$	$T$	$I/T$	$\Delta W, \text{ eV}$	$\langle \Delta W \rangle$	$\delta\%$
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							

### Nazorat uchun savollar

1. Metallarning klassik elektron nazariyasini tushuntiring.

2. Metallar solishtirma qarshiligining haroratga bog'lanishini tushuntiring. Harakatchanlik nima?
3. Metallarda energetik zonalarning hosil bo'lismeni tushuntiring. Metall, dielektrik va yarim o'tkazgichlarni zonalar nazariyasi asosida tushuntiring.
4. Xususiy yarim o'tkazgichning zonalar tuzilishini tushuntiring.
5. Yarim o'tkazgichllarning elektr o'tkazuvchanligi nimalarga bog'liq?
6. Xususiy yarim o'tkazgichlarda zaryad tashuvchilarning konsentrtsiyasini hisoblash formulalarini tushuntiring. Fermi sathi, uning energiyasini tushuntirib bering..
7. Xususiy yarim o'tkazgichning elektr o'tkazuvchanligini tushuntiring.
8. Ushbu ishda man etilgan zona kengligini aniqlashni tushuntiring.
9. Qurilmaning tuzilishi va ishni bajarish tartibini tushuntiring.

### **Adabiyotlar**

1. Savelyev I.V. "Umumiy fizika kursi" T.2, 69-73. Toshkent. "O'qituvchi". 1975.
2. Епифанов Г.И. Физика твердого тела. Москва. «Высшая школа».

## 8 - laboratoriya ishi

### Xoll effektini o`rganish va yarim o`tkazgichlarda zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi, harakatchanligi va ularning ishoralarini aniqlash

**Kerakli asbob va materiallar:** qarshiliklar magazini, milliampermetr, millivoltmetr, raqamli voltmetr, tok manbai, ulovchi kalit va o`zgarmas magnit.

**Ishning maqsadi:** yarim o`tkazgich moddalarda zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi, harakatchanligini Xoll EYUK.ni o`lhash orqali aniqlash va solishtirma qarshiligini aniqlash.

O`lhashlar o`zgarmas tokda va o`zgarmas magnit maydonida kremniy va arsenid galliy materiallarida bajariladi.

#### Asosiy nazariy ma'lumotlar

Agarda, o`zgarmas tok o`tayotgan yarim o`tkazgichni magnit maydonga kiritsak bu holda unda ba`zi effektlar kuzatiladi. Magnit maydoniga joylashtirilgan moddalardan elektr toki o`tkazilganda elektr maydoni ta`sirida sodir bo`ladigan fizik hodisalar galvanomagnit hodisa (effekt)lar deyiladi.

Galvanomagnit effektlarga Xoll effekti ham kiradi. Elektr ( $\vec{E}$ ) va magnit ( $\vec{B}$ ) maydonlarida  $\vec{g}$  tezlik bilan harakatlanayotgan elektronga  $\vec{F}$  kuch ta`sir etadi:

$$\vec{F} = q\vec{E} + q[\vec{g} \cdot \vec{B}] = m^* \cdot \vec{a} \quad (1)$$

bu yerda  $m^*$  - zaryadlangan zarrachaning effektiv massasi (kristallning davriy maydonida harakatlanayotgan zarrachaning massasi erkin zarracha massasidan farq qiladi),  $q$  - zarracha zaryadi,  $\vec{g}$  - zarracha tezligi,  $\vec{a}$  - uning tezlanishi,  $\vec{E}$  - elektr maydon kuchlanganligi,  $\vec{B}$  - magnit maydon induksiyasi.

Elektr va magnit maydonlari ta`sirida zarrachaning harakatini ko`rib chiqamiz.

O`zgarmas elektr maydonida zarrachaga kuch ta`sir etadi

$$\vec{F} = q\vec{E} \quad (2)$$

bunda zarracha tezlanish oladi, ya`ni

$$\vec{a} = \frac{q\vec{E}}{m^*} \quad (3)$$

Magnit maydonida ham zarrachaga kuch ta`sir etadi

$$\vec{F} = q[\vec{g} \cdot \vec{B}] \quad (4)$$

zarrachaning olgan tezlanishi

$$\vec{a} = \frac{q[\vec{g} \cdot \vec{B}]}{m^*} \quad (5)$$

Umumiy holda tezlik va magnit induksiyasi yo‘nalishlarining istalgan oriyentatsiyasida elektronning tezligi yo‘nalishini ikkiga ajratish mumkin, ya’ni parallel ( $\vec{g}_{II}$ ) va perpendikular ( $\vec{g}_\perp$ ) demak:

$$\vec{g} = \vec{g}_{II} + \vec{g}_\perp \quad (6)$$

Bu holda magnit maydonida zarrachaga ta’sir etuvchi kuch:

$$F_B = q \vec{g}_\perp B \quad (7)$$

Bu kuch har doim  $\vec{g}_\perp$ - yo‘nalishni o‘zgartirib turadi.  $\vec{g}_{II}$  – esa o‘zgarmasdan qoladi. Bu  $F_B$  kuch zarrachani magnit maydonida vintsimon ( $F_B = q \vec{g}_{II} B$ ) harakat qilishga majbur etadi.

Agarda  $\vec{g}_\perp = 0$  bo‘lsa, zaryadlangan zarracha aylana bo‘ylab harakat qiladi. Bu aylananing radiusi

$$r = \frac{m^* \vec{g}}{qB} \quad (8)$$

burchakli tezligi

$$w = \frac{qB}{m^*} \quad (9)$$

aylanish davri

$$T = \frac{2\pi m^*}{qB} \quad (10)$$

formulalar orqali topiladi.

Elektr va magnit maydonlari zarrachaga bir paytning o‘zida ta’sir etsa, u holda zarracha juda murakkab trayektoriya bo‘ylab harakatlanadi.

Agar elektr va magnit maydonlari o‘zaro parallel bo‘lsa, zarracha har qadami ortib boruvchi vintsimon harakat qiladi. Chunki elektr maydoni tezlikning  $\vec{g}_{II}$ - tashkil etuvchisini o‘zgartirib turadi,  $\vec{g}_\perp$  - ga esa ta’sir etmaydi.

Agarda elektr va magnit maydonlari o‘zaro perpendikulyar bo‘lsa va zarrachaning boshlang‘ich tezligi nolga teng bo‘lsa, (1) tenglamaning yechimi sikloida tenglamasini beradi

$$x = a_1 T_1^2 \left( \frac{t}{T_1} - \sin \frac{t}{T_1} \right) \quad (11)$$

$$y = a_1 T_1^2 \left( 1 - \cos \frac{t}{T_1} \right) \quad (12)$$

bu yerda,

$$a_1 = \frac{qE}{m^*}, \quad (13)$$

$$T_1 = \frac{2\pi m^*}{qB} . \quad (14)$$

Agarda zarracha boshlang‘ich  $\vartheta_0$  tezlikka ega bo‘lib, yo‘nalishi magnit maydoniga perpendikular bo‘lsa, zarrachaning trayektoriyasi traxoiddan iborat bo‘ladi.


### Yarim o‘tkazgichlarda xoll effekti

Parallelopiped ko‘rinishda kesilgan yarim o‘tkazgich modda olamiz. Elektr maydoni ( $E$ ) y o‘qi bo‘ylab yo‘nalsin, magnit maydoni ( $B$ ) esa  $z$  o‘qi bo‘ylab joylashsin.

Elektr maydoni ta’sirida zaryad tashuvchi zarrachalar ma’lum dreyf tezligi  $\vartheta_d$ -ga erishadi, bunda elektronlar maydon yo‘nalishiga teskari, kovaklar esa maydon yo‘nalishi bo‘ylab harakatlanadi.

Agarda zaryad tashuvchilar kovaklardan iborat bo‘lsa, (1a-rasm) magnit maydoni  $B$  ta’sirida (Lorens kuchi ta’sirida) ular o‘tkazgichning chap tomoniga og‘adi va bu tomonida musbat zarrachalar yig‘iladi, qarama-qarshi tomonda esa kompensatsiyalanmagan manfiy zaryadlar yig‘iladi.

Agarda zaryad tashuvchilar elektronlar bo‘lsa (1b-rasm), magnit maydoni  $B$  ta’sirida (Lorens kuchi ta’sirida) bular ham chap tomonga yig‘iladi va manfiy zarrachalar to‘plami hosil bo‘ladi, qarama-qarshi tomonda esa kompensatsiyalanmagan



1-rasm. Yarim o‘tkazgich moddalarda Xoll potensiallar farqining hosil bo`lishi: a) kovakli; b) elektronli; d) aralash o‘tkazuvchanlikka ega yarim o‘tkazgichlar

musbat zaryadlar to‘planadi.

Lorens kuchi harakatlanayotgan zaryadli zarrachani harakat tezligiga va magnit maydoniga perpendikular bo‘lib, yo‘nalishi chap qo‘l qoidasiga asosan topiladi

$$\vec{F} = q[\vec{g}_d \cdot \vec{B}] . \quad (15)$$

Lekin dreyf tezligi

$$\vec{g}_d = U\vec{E} = \frac{q_0\lambda}{m*\vartheta} \vec{E} \quad (16)$$

shuning uchun

$$\vec{F} = \frac{q_0^2\lambda}{m*\vartheta} [\vec{E}\vec{B}] . \quad (17)$$

Demak, Lorens kuchi zaryad tashuvchilarning ishorasiga bog‘liq bo‘lmay  $\vec{E}$  va  $\vec{B}$  ya’ni elektr va magnit maydon yo‘nalishiga yoki tok zichligi  $\vec{j}$  va  $\vec{B}$  yo‘nalishlariga bog‘liqdir.

Rasmda ko‘rinishdan har ikkala holda ham  $F \propto o‘qi$  yo‘nalishi bo‘yicha yo‘nalgandir. Agarda zaryad tashuvchilarning tezliklari maydon ta’siri natijasida sodir bo‘lsa, elektronlar ham, kovaklar ham bir tomonga og‘adi.

Agarda zaryad tashuvchilar elektronlar va kovaklardan iborat (ya’ni aralash o‘tkazuvchanlik, 1d-rasm) bo‘lsa va bunda elektron va kovaklar konsentratsiyasi va ularni harakatchanligi bir xil bo‘lsa ularni o‘tkazgich tomonlarida bir-birlarini kompensatsiyalanishi natijasida yig‘indi zaryadi har doim 0 ga teng bo‘ladi. Agar zaryad tashuvchilarni birontasi ko‘p bo‘lsa, u holda ortiqcha zaryad to‘planib qoladi.

Perpendikular magnit maydoniga joylashtirilgan yarim o‘tkazgich moddada o‘tkazgichni yon tomonlarida elektronlarni yoki kovaklarni o‘tkazgichdan tok o‘tganda hosil bo‘lish hodisasi **Xoll effekti** deyiladi. Hosil bo‘ladigan kuchlanish Xoll kuchlanishi natijasida hosil bo‘lgan elektrostatik kuch bilan tenglashgunicha yig‘ilishini nazarda tutish kerak. Demak,

$$q_0\vec{E}_x = q_0[\vec{g}_d \cdot \vec{B}_z] \quad (18)$$

yoki

$$\vec{E}_x = [\vec{g}_d \cdot \vec{B}_z] \quad (19)$$

bu formulada  $\vartheta_g = U\vec{E}_y$ ;  $\varepsilon = E_x B$  - Xoll EYUK

Bir jinsli magnit maydonida hosil bo‘lgan Xoll EYUK

$$\varepsilon = UE_y B \varepsilon \quad (20)$$

yoki zaryad tashuvchilarni tok zichligi orqali ifodasini kiritib

$$j = qnEU \quad \text{va} \quad U = \frac{j}{qnE} ; \quad j = \frac{J}{db}$$

larni e’tiborga olib

$$\varepsilon = \frac{1}{q_0 n} \cdot \frac{JB}{d} \quad (21)$$

bu yerda  $d$  – magnit maydoni yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkazgichning qalinligi,  $n$  – zaryad tashuvchilarning kotsentratsiyasi.

Agarda

$$\frac{1}{q_0 n} = R \quad (22)$$

deb belgilasak Xoll EYUK uchun quyidagi formulani topamiz

$$\varepsilon = R \cdot \frac{JB}{d} \quad (23)$$

Bu formuladagi R Xoll koeffitsiyenti deyiladi.

(23) formuladagi barcha kattaliklarni (R dan tashqari) tajribada o'lhash mumkin. Bu kattaliklar orqali Xoll koeffitsiyenti hisoblab chiqiladi. Binobarin, (22) ga asosan  $n = \text{yarim } o'tkazgichlardi}$  harakatchan elektronlarning konsentratsiyasini aniqlash mumkin. Bundan tashqari:

$$\sigma = en \cdot U \quad (24)$$

ekanligidan foydalanib,

$$R = \frac{1}{en} = \frac{U}{\sigma} \quad (25)$$

dan harakatchan elektronlarning U harakatchanligini ham aniqlash mumkin

$$U = \sigma \cdot R \quad (26)$$

Agar yuqorida aytilgan hamma shartlarni o'zgartirmasdan  $n = \text{yarim } o'tkazgich}$  o'rniga  $p = \text{yarim } o'tkazgich}$  olsak, hosil bo'lgan Xoll maydonining yo'nalishi teskari tomonga o'zgaradi. Chunki kovaklarning yo'nalishi elektr tokining yo'nalishi bilan bir xil bo'lganligi uchun magnit maydonida kovaklarga ta'sir qiladigan kuchning yo'nalishi bilan bir xil bo'ladi. Shu sababli  $n = \text{yarim } o'tkazgichda}$  elektronlar qaysi tomonga og'sa  $p = \text{yarim } o'tkazgichdagi kovaklar unga}$  teskari yo'nalishda og'adi.


Xoll koeffitsiyenti  $n$  va  $p = \text{yarim } o'tkazgichlarda}$  qarama-qarshi ishoralarga ega degan xulosa kelib chiqadi.

Demak, Xoll effekti yordamida aralashmali yarim  $o'tkazgichlardi$  harakatchan zaryad tashuvchilarning ishorasini, ularning konsentratsiyasi va harakatchanligini aniqlash mumkin. Shu sababli bu usul yarim  $o'tkazgichlarning$  elektr xususiyatlarini tekshirishda asosiy usullardan biri bo'lib hisoblanadi.

## Qurilmaning tuzilishi va o'lhash usuli

Xoll EYUK ni o'lhashning bir qancha usullari mavjud: o'zgarmas elektr va magnit maydonlarida, o'zgaruvchan tokda, impuls usuli va hokazolar.

O'zgarmas elektr va magnit maydoni yordamida Xoll EYUKni topishni ko'rib chiqamiz. 2-rasmda Xoll EYUKni va yarim  $o'tkazgichning$  solishtirma qarshiligini o'lhash usulining prinsipial sxemasi keltirilgan.



2-rasm

Bu rasmda  $I_{em}$  -elektromagnit orqali o‘tuvchi tokni sozlagich (regulyator); EM – elektromagnit; A - elektromagnit orqali o‘tuvchi tokni o‘lchagich (ampermetr);  $I_{nam}$  - namunadan o‘tuvchi tokni sozlagich (regulyator); mA – namunadagi tokni o‘lchagich; mV - millivoltmetr; K<sub>1</sub> - K<sub>4</sub> – kalitlar; M- qurilmaning tok manbai.

Tekshirilayotgan namunalar to‘g‘ri burchakli parallelepiped shaklida.

### O‘lchash va o‘lchash natijalarini hisoblash

1. O‘lchashdan oldin qurilmaning tuzilishi bilan yaxshilab tanishing.
2. Qurilmani ulashdan oldin, kalit K<sub>1</sub> ni "otkl" holatiga qo‘ying, K<sub>2</sub> va K<sub>3</sub> kalitlarni "+" holatiga va K<sub>4</sub> kalitni esa 20 mV holatiga qo‘ying, sozlagich  $I_{em}$  va  $I_{nam}$  larni soat strelkasi yo‘nalishiga teskari tomonga to taqalguncha burang.
3. Qurilmani o‘zgaruvchan elektr tarmog‘iga ( $\sim 220V$ ) ulang. Kalit K<sub>1</sub> ni ulang va qurilma 5-10 daqiqa qiziguncha kutib turing.
4. Sozlagich ("0"ga kelt.) orqali millivoltmetr strelkasini nolga keltiring. Bu bilan namunadagi kontaktlarning nosimmetrik joylashishi orqali hosil bo‘ladigan potensiallar ayirmasini kompensatsiyalaymiz (odatda kontaktlarni namunanining aynan ekvipotensial chiziqlarida o‘rnatish juda qiyindir). Nolga yanada aniqroq keltirish uchun kalit K<sub>4</sub> ni "2mV" holatga o‘tkazish mumkin.
5. Sozlagich " $I_{nam}$ " orqali namunadan 10 mA tok o‘tkazing.
6. Sozlagich " $I_{em}$ " orqali elektromagnitdan o‘tayotgan tokni 1A ga keltiring.
7. Bir necha marta (taxminan 12-14 marta) K<sub>2</sub> kalitni «» holat va teskarisiga almashtiring. (Bu bilan elektromagnitdagi temirni maxsus magnit holati hosil qilinadi.) K<sub>2</sub> kalitni "+" holatda qoldiring. Bu holatda ampermetrning ko‘rsatishi o‘zgarmas.

8. K<sub>4</sub> kalit bilan millivoltmetr o'lchash chegarasining qulay holatini tanlab oling. Xoll potensiallar ayirmasi ( $V_+$ ) qiymatini jadvalga yozing.
9. K<sub>2</sub> kalitni «→» holatga o'tkazing. Bu holda elektromagnit o'rtasidagi tirkishda hosil bo'ladigan magnit maydoni yo'nalishi teskariga o'zgaradi, lekin qiymati o'zgarmaydi. K<sub>3</sub> kalitni «→» holatga qo'ying va Xoll potensiallar ayirmasi ( $V_-$ )ni o'lchab, qiymatini jadvalga yozing.
10. Xoll potensiallar ayirmasining o'rtacha qiymatini toping:

$$\text{a. } V_{o\text{-}rt} = \frac{V_+ + V_-}{2}$$

Bu bilan biz millivoltmetrni nolga keltirishda yo'1 qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolikni to'g'rilaymiz.

11. K<sub>2</sub> va K<sub>3</sub> kalitlarlarni «+» holatga quying. 6-9 bandlarda bajarilgan amallarni elektromagnitdan o'tuvchi tokning kattaligi 1,5 A va 2 A bo'lgan holatlar uchun takrorlang.
12. Sozlagich  $I_{em}$  ni soat strelkasiga teskari yo'nalishda oxirigacha burang ( $I_{em}=0$ ). 5-10 bandlardagi amallarni namunadan o'tuvchi tokning qiymati 20 A va 30 A bo'lgan holatlar uchun takroran bajaring.
13.  $I_{em}$  va  $I_{nam}$  toklar qiymatlarini ko'rsatilgandan boshqacha tanlab olish mumkin. O'lchash va hisoblashlar natijalarini quyidagi jadvalga yozing.

$\text{№}$	$I_{nam}$ A	$I_{em}$ A	H A /m	$V_+$ V	$V_-$ V	$V_{o\text{-}rt}$ V	R $\frac{m^2}{A \cdot s}$	$n$ m <sup>-3</sup>	$\rho$ Om·m	$U$ $\frac{m^2}{V \cdot s}$
1										
2										
.										

Berilgan  $I_{em}$  tokka mos kelgan elektromagnitning tirkishdagi magnit maydon kuchlanganligini qurilmaning mavjud grafigi asosida topiladi.

Xoll koeffitsiyentini quyidagi formula orqali hisoblang

$$R = \frac{\vartheta_{o\text{-}rt} \cdot d}{J_{nam} \cdot H} \cdot 10^8 \left[ \frac{sm^2}{A \cdot s} \right]$$

Zaryad tashuvchilarining konsentratsiyasi

$$n = \frac{7,4}{R} \cdot 10^8 [cm^{-3}]$$

yoki

$$n = \frac{1}{Rl} \cdot [m^{-3}]$$

Solishtirma qarshilik quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\rho = \frac{\vartheta_{o'rt} \cdot S}{J \cdot l} = \frac{\vartheta_{o'rt} \cdot l \cdot B}{J \cdot l} = \frac{\vartheta_{o'rt} \cdot B}{J}$$

Yarim o'tkazgich moddaning solishtirma qarshiligin bilgan holda Xoll doimiysining o'rtacha qiymatini quyidagi formulaga quyib, zaryad tashuvchilarining o'rtacha harakatchanligini hisoblash kerak. Musbat yoki manfiy zaryad tashuvchi zarrachalarning harakatchanligi

$$U = \frac{8R_{o'rt}}{3\pi\rho}$$

### Nazorat uchun savollar

1. Ishdan maqsad nima?
2. Xoll effektini tushuntiring, Xoll E.YU.K. qanday hosil bo'ladi?
3. Zaryad tashuvchilarining harakatchanligi deganda nimani tushunasiz?
4. Zaryad tashuvchilarining ishorasini qanday aniqlash mumkin?
5. Nima uchun o'tkazgichning holatini  $180^\circ$  ga o'zgartirish kerak?
6. Qurilmaning tuzilishi va ishlashini tushuntiring?

### Adabiyotlar

1. Kalashnikov S.G. Elektr. Toshkent, "O'qituvchi" 1979.
2. Fizikadan praktikum. Elektr va optika. Professor Iveronova V.I. tahriri ostida. T.:O'qituvchi.1973.
3. Savelyev I.V. "Umumiy fizika kursi" T.2, Toshkent. "O'qituvchi". 1975.

## 9 - laboratoriya ishi

### Gisterezis sirtmog`ini hosil qilish va o`rganish

**Ishning maqsadi:** Moddalarning magnit xususiyatlarini ifodalovchi kattaliklar, ularning o`zaro bog'liqligi va fizik ma'nosini hamda tajribada gisterezis sirtmog`ini hosil qilish va uni tahlil qilishni o`rganish.

**Kerakli asbob va uskunalar:** temir sterjen, ikkita simlar o`rami, (g`altak), kompas, reostat, kalit, o`zgarmas tok manbai.

### Asosiy nazariy ma'lumotlar

Tashqi magnit maydon ta'sirida magnitlanuvchi va natijaviy magnit maydonini o`zgartiruvchi moddalarga magnetiklar deyiladi.

Moddalarning magnit xususiyatlarini ifodalovchi kattaliklar magnit induktsiya vektori ( $\vec{B}$ ), magnitlanish vektori ( $\vec{j}$ ) moddalarning magnit sindiruvchanligi ( $\mu$ ) moddaning magnit kirituvchanligi ( $\kappa$ ), magnit maydon kuchlanganligi ( $\vec{H}$ ) va hokazolardir.

Muhitdagi magnit maydon induktsiyasi  $\vec{B}$ , tashqi magnit maydon induktsiyasi va magnitlangan modda hosil qilgan xususiy ichki magnit maydon induktsiyasining geometrik (vektor) yig'indisiga teng bo'ladi

$$\vec{B} = \vec{B}_0 + \vec{B}' \quad (1)$$

$\vec{B}'$  magnit induktsiyasi muhitining magnitlanish vektori bilan quyidagicha bog'langan

$$\vec{B}' = \mu_0 \vec{j}$$

Magnit maydon induktsiyasi tashqi maydon kuchlanganligiga to'g'ri proportsional bo'lib, ular quyidagi ifoda orqali bog'langan

$$\vec{B} = \mu \mu_0 \vec{H} \quad (2)$$

bunda,  $\mu_0 = 4\pi \cdot 10^{-7} \frac{\text{Gn}}{\text{m}}$  - magnit doimiysi deyiladi;

$\mu$  - muhitning magnit sindiruvchanligi bo'lib vakuumda  $\mu=1$ . Uning fizik mohiyati qo'yidagicha: magnitlanuvchi muhitdagi magnit induktsiyasi, vakuumdagi magnit induksiyadan necha marta kattaligini ko'rsatadi, u birliksiz kattalikdir, ya'ni

$\mu = \frac{B}{\mu_0 H} = \frac{B}{B_0}$ . Magnitlanish vektori ( $\vec{j}$ ) magnetikning birlik hajmidagi magnit momentiga teng bo'lib, u tashqi maydon kuchlanganligiga to'g'ri proportsionaldir, ya'ni

$$\vec{j} = \kappa \vec{B}_0 = \mu_0 \kappa \vec{H} . \quad (3)$$

(1) ifodani (2) va (3) larni e'tiborga olib quyidagicha yozamiz

$$\vec{B} = \mu_0 \vec{H} + \mu_0 \vec{j} + \mu_0 \vec{H} + \mu_0 \kappa \vec{H}$$

ya'ni

$$\vec{B} = \mu_0 (1 + \kappa) \vec{H} \quad (4)$$

(2) va (4) ifodalarni taqqoslab:

$$\mu = 1 + \chi$$

( $\chi$ ) va ( $\mu$ ) moddalarning magnit xossalari ifodalovchi kattaliklardir. Barcha magnetiklar ushbu kattaliklarning ishorasi va qiymatlariga qarab uch turga bo'linadi.

1. Diamagnetiklar  $\chi < 0$  va  $\mu < 1$
2. Paramagnetiklar  $\chi > 0$  va  $\mu > 1$
3. Ferromagnetiklar  $\chi \gg 1$  va  $\mu \gg 1$


1. Diagnetiklarda xususiy magnit maydoni magnitlovchi tashqi maydonga qarama-qarshi yo'nalgan bo'lib, uni susaytiradi. Diamagnetiklar uchun  $\chi < 0$  va  $\mu < 1$ . Diamagnetiklarga: vismut, mis, oltingugurt, simob, xlor, inert gazlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

2. Paramagnetiklarda tashqi magnitlovchi maydon bilan bir xil yo'nalishdagi uni kuchaytiruvchi xususiy magnit maydoni hosil bo'ladi. Paramagnetiklar uchun  $\chi > 0$  va  $\mu > 1$ . Paramagnetiklarga misol qilib quyidagilarni ko'rsatish mumkin: natriy, kaliiy, marganets, alyuminiy, platina, turli tuzlarning eritmalarini.

3. Kuchli magnitlanish xususiyatiga ega bo'lgan moddalar ferromagnetiklar deyiladi. Ferromagnetiklarda ( $\mu$ ) bir necha mingga yetadi, bunda moda magnit induktsiyasi ( $\vec{B}$ ) ning tashqi magnit maydon kuchlanganligi ( $\vec{H}$ ) ga murakkab bog'lanishi kuzatiladi. Ferromagnetiklarda gisteresis hodisasi kuzatiladi, (gisteresis – *hysteresis* - kechikish) bunda magnitlovchi tashqi maydon kamaytirilgandagi magnitlanish ( $\vec{j}$ ) tashqi maydonni oshirgandagi mashitlanishning oshishiga nisbatan sekinroq kamayadi. Ferromagnetiklarga temir, kobalt, nikel, shuningdek ko'pgina ferromagnetik qotishma va kristall birikmalarini misol keltirish mumkin.

Ferromagnetiklarda magnit kirituvchanlik qiymatining katta bo'lishi va gisteresis hodisasi, ularda kichik tasodifiy magnitlanish sohalari mavjudligi bilan tushuntiriladi (1-rasm). Bu sohalar tashqi maydon qo'yilmagan holda ham to'yinish darajasigacha magnitlangan bo'ladi.

Bu kichik sohalar **domenlar** deyiladi. Tashqi maydon bo'limganda domenlarning magnitlanish vektorlari ixtiyoriy yo'nalishda yo'nalgan bo'ladi.




1 -rasm

Tashqi magnit maydonida esa domenlarning qayta joylanishi hisobiga magnitlanish vektorining tashqi maydon yo`nalishi bo`ylab tartibli joylashishi sodir bo`ladi. Ferromagnetikni qizdirganda zarralarning issiqlik harakatining ortishi tartibli magnit tuzilishning buzilishiga olib keladi. Shu sababli modda o`zining ferromagnetiklik xususiyatini yo`qotadi va o`zini oddiy paramagnetik singari tutadi (1-rasm, c).

Bu holat har bir ferromagnetik uchun ma'lum bir haroratda sodir bo`ladi, bu harorat Kyuri harorati yoki Kyuri nuqtasi deyiladi va ( $T_K$ ) bilan belgilanadi.

Magnit momentlarning tartibli yo`nalishini namunani qattiq urish yoki silkitish bilan ham buzish mumkin.

Ferromagnetiklarning magnit induktsiyasi va magnit maydon kuchlanganligi o`zaro bir qiymatli bog`langan. Induksiya nafaqat magnit maydon kuchlanganligiga, balki namunaning tarkibiga, hamda boshlang`ich magnitlanishiga ham bog`liq bo`ladi.




Ferromagnetiklarning magnit maydon induksiyasi bilan tashqi magnit maydon kuchlanganligi orasidagi bog`-lanish gisterezis ko`rinishiga ega (2 - rasm). Gisterezis sirtmog`ining hosil bo`lishini tahlil qilaylik.

Agar ferromagnetik  $H=0$  bo`lgan tashqi maydonda joylashgan bo`lsa, uning holati O nuqta bilan ifodalanadi. Agar tashqi magnit maydon  $H$  hosil qilinib, uning kuchlanganligi oshib borsa, ferro-magnetikning magnit induktsiyasining o`zgarishi OA egri chiziq bilan ifodalanadi. Bu egri chiziq magnitlanish chizig`i deyiladi. Tashqi magnit maydon kuchlanganligi  $H=H_1$  va undan katta qiymatlarga oshirilsa, magnitlanish egri chizig`i yassilanadi, bunda magnitlanish to`yinish nuqtasiga yetadi. Bu nuqta ferromagnetik ichidagi domenlarning manitlanish vektorlarining barchasi tashqi magnit maydon yo`nalishida joylashib oladi.

Tashqi magnit maydon kuchlanganligini kamaytirib borsak, magnitlanish chizig`i AC bo`yicha o`zgaradi. Ya`ni tashqi maydon  $H=0$  bo`lganda ham ferromagnetikning magnit induktsiyasi nolga teng bo`lmaydi. Induktsiyaning  $B=OC$  ( $H=0$ ) qiymati qoldiq induksiya deyiladi. Bu ferromagnetikning tavsiflaridan biri hisoblanadi. Qoldiq induksiyani yo`qotish uchun  $H=OD$  ga teng bo`lgan teskari maydon qo`yish kerak. Bu maydon ( $H_K=OD$ ) koersitiv kuch deb ataladi. Teskari maydonning qiymatini oshirib borsak magnitlanish egri chizig`ining  $A_1$  nuqtasida to`yinish holati kuzatiladi. Agar bu nuqtadan tashqi maydonni 0 gacha so`ngra  $H_1$  qiymatgacha oshirib borsak  $ACDA_1C_1D_1A$  berk chizig`i hosil bo`ladi. Bu berk egri chizig`i **gisterezis sirtmog`i** deyiladi.

B va H bir biri bilan bir qiymatli aniqlanmaganligi uchun magnit kirituvchanlik tushunchasini magnitlanishning asosiy egri chizig'i OA qism uchungina qo'llash mumkin. Ferromagnetiklarning magnit kirituvchanligi (shuningdek magnit singdiruvchanligi) magnit maydon kuchlanganligining funksiyasi hisoblanadi,  $\mu = f(H)$  va magnitlanish egri chizig'ining har bir nuqtasiga o'tkazilgan urinmaning H o'qi bilan hosil qilgan burchakning tangensiga proportional,  $\operatorname{tg}\varphi \sim \frac{B}{H}$  ya'ni magnitlanish egri chizig'idan magnit singdiruvchanlik egri chizig'ini olish mumkin. (3-rasm).



3 - rasm

Magnit maydon kuchlanganligi noldan boshlab oshirib borilsa, qiyalik burchagi (demak magnit singdiruvchanlik ham) oldin oshib boradi, so'ngra 2 nuqtada eng katta qiymatga erishadi, keyin kamayib boradi.

Bu bog'lanishdan ko'rindikti  $\mu$  magnitlanishning to'yinish qiymatidan ancha ilgari o'zining eng katta qiymatiga erishar ekan. H ni cheksiz oshirib borilsa magnit singdiruvchanlik asimptotik ravishda  $\mu = 1$  ga yaqinlashib boradi. Bu (B)

$$\text{magnit induksiya qiymati } \mu \approx 1 + \frac{B}{H}$$

ifodada ( $B_T$ ) to'yinish qiymatidan ortiq bo'lmaslididan kelib chiqadi.

Magnit singdiruvchanlikning bunday o'zgarishi magnitlovchi maydon kuchlanganligigagina bog'liq bo'lmay boshqa ko'pgina sabablarga (ichki tuzilishi, kimyoviy tarkibi, ichki magnit sohalarining joylashishiga, tashqi ta'sirlarga xususan haroratga) bog'liq bo'ladi. Shuning uchun har bir magnit jism biror sohada qo'llanilishdan oldin uning magnitlanish egri chiziqlari mukammal o'rganilib, uni yuqorida aytilgan asosiy magnit kattaliklari aniqlab berilishi kerak. Har bir namuna ishlatilgach magnitsizlantirilishi lozim. Namunani qayta magnitlashda ma'lum ish bajariladi. Bunda energiya yo'qotilib issiqlik ajraladi. Bu qayta magnitlashda bajarilgan ish miqdori gisterazis sirmog'inining yuzasiga teng.


## Qurilmaning tuzilishi va o'lchash usuli

### 1 – Qurilma.

Bu tajribada gizterezis halqasi quyidagicha olinadi. Ikki simlar o'rami a va b (2-rasm) orasiga K kompas joylashtiriladi. Yog'och taglikni aylantirib kompasni shunday joylashtiriladi, bunda kompas strelkasi 0 ni ko'rsatsin.

Agar simlar o'rami kompasni joyini o'zgartirmay, simlar o'ramining birortasiga temir yoki po'lat o'zak kiritilsa kompas strelkasi  $\varphi$  burchakka og'adi, bunda o'zakda hosil bo'lgan magnit maydon kompas strelkasi bilan o'zaro ta'sirlashadi.

Agar «a» va «b» simlar o'ramlari orqali tok o'tkazilsa va ularda tok kattaligi va yo'nalishi o'zgartirib (tok kattaligi reostat orqali va yo'nalishi kalit orqali o'zgartiriladi) yopiq kontur olish mumkin. Yopiq kontur  $\varphi$  burchak va tok orasidagi



bog'lanishni belgilaydi [ $\operatorname{tg}\varphi = f(I)$ ]. Bu hosil qilingan yopiq kontur gizterezis halqasining o'zginasidir  $B = f(H)$ , chunki sim o'ramidagi maydon kuchlanganligi tok kuchiga to'g'ri proporsionaldir, sterjenning magnit maydoni esa induksiya  $B$  ga proporsionaldir.

### Ishni bajarish tartibi

1. 2-rasmida ko'rsatilgandek sxema yig'iladi.
2. Simlar o'rami orqali tok o'tkaziladi va sim o'rami orasidagi masofani o'zgartirib, kompas strelkasi bilan simlar o'ramining o'zaro kompensatsiyalash holatiga keltiriladi. Shundan so'ng simlar o'rami qo'zg'atilmaydi. Bu holatda strelka o'zining boshlang'ich holatida joylashadi.
3. Temir yoki po'lat o'zak olib, uni magnitsizlashtirish qurilmasida (3-rasm) magnitsizlantirib «a» yoki «b» g'altak orasiga shunday joylashtiriladi, bunda temir yoki po'lat o'zak g'altak o'rtasida joylashsin.
4. Reostat orqali tok kuchini har safar 0,2 A ga o'zgartirib borib, kompas strelkasining og'ish burchagi  $\varphi$  va tok kuchi yozib boriladi. Tok kuchi 1A ga yetgandan so'ng xuddi shu tartibda tok kuchi 0 gacha tushiriladi. Kalit orqali tok yo'nalishi o'zgartiriladi va o'lchashlar teskari yo'nalishda bajariladi. Tok kuchi teskari yo'nalishga o'zgartirilganda burchak  $\varphi$  manfiy deb hisoblanadi.
5. Abssissa o'qiga tok kuchi qiymatlarini va ordinata o'qiga  $\operatorname{tg}\varphi$  burchak qiymatlarini qo'yib  $\operatorname{tg}\varphi = f(I)$  grafigi chiziladi.


Tajriba va hisoblashlardan olingan qiymatlar quyidagi 1-jadvalga yoziladi.

1-jadval

OA sohadagi tok kuchi (I), A	$\phi$	$tg\varphi$	AD sohadagi tok kuchi (I), A	$\phi$	$tg\varphi$	DA sohadagi tok kuchi (I), A	$\phi$	$tg\varphi$	AD sohadagi tok kuchi (I), A	$\phi$	$tg\varphi$	DA sohadagi tok kuchi (I), A (Ikkinchchi marta tok kuchi o`zgartiriladi)	$\phi$	$tg\varphi$
0			1.0			0			1.0			0		
0.2			0.8			0.2			0.8			0.2		
0.4			0.6			0.4			0.6			0.4		
0.6			0.4			0.6			0.4			0.6		
0.8			0.2			0.8			0.2			0.8		
1.0			0			1.0			0			1.0		

Tushuntirish. Tajriba davomida tok kuchini bir tekis o`zgartirish uchun reostat surgichini asta-sekin surish kerak, agar tasodifan qisqa tutashuv bo`lsa, yoki birdaniga tok kuchi katta qiyamatlarga ortib ketsa, tajribani to`xtatib, o`zakni magnitsizlantirib, tajribani qayta o`tkazish kerak.

**2-Qurilma.** Gisterezis sirtmog'ini 4-rasmida ko`rsatilgan chizmadagi ostsillograf (EO) yordamida kuzatiladi. Chizmadagi  $L_1$  va  $L_2$  – g'altaklar,  $R_1$ ,  $R_2$ ,  $R_3$  - qarshiliklar,  $A$  –



4 - rasm

ampermetr, C- kondensator.

Ostsillograf trubkasining gorizontal og'diruvchisi – «X» plastinkaga magnit maydon kuchlanganligi (H) ga proportsional, vertikal og'diruvchisi – «U» plastinkaga esa induksiya vektori (B) ga proporsional kuchlanishlar beriladi. «M» sterjen – tekshirilayotgan namuna jismdir. Sterjenda magnit maydonni hosil qiluvchi tok  $L_1$  g'altakka beriladi, u o'zgaruvchan tokdir.  $L_2$  g'altakda induksiya E.Yu.K. hosil bo'ladi, bu tok manbai ham hisoblanadi. Sinusoidal qonun buyicha o'zgaruvchan tokning bir davri ichida elektron nurning izi ostsillograf ekranida to'liq gisterezis sirtmog'ini hosil qiladi, shu sababli ekranda qo'zg'almas gisterezis sirtmog'i ko'rindi.

Agar  $R_1$  potensiometr yordamida  $L_1$  g'altakdan o'tuvchi va A - ampermetrda o'lchanuvchi tok kuchini oshirsak, (H) ning tebranish amplitudasi ortadi, bu ekranda ko'rinyayotgan gisterezis sirtmogining yuzasini ortishiga olib keladi.  $R_1$  ning qiymatini o'zgartirib «X» o'qi buyicha kengayish masshtabini tanlash mumkin.

### Ishni bajarish tartibi

1. «Reg toka» ( $R_3$ ) va «masshtab» ( $R_2$ ) deb belgilangan tok va masshtab o'zgartirgichlarni soat strelkasiga teskari yo'nalishda oxirigacha burang. «Set» deb belginlangan kalit yordamida tizimni 220 V kuchlanishli manbagi ulang.
2. Ostsillografni ulang va uning boshqarish qismlari orqali yorug' nuqtani ekran markaziga to'g'riling.
3. G'altak ichiga tekshiriluvchi M- sterjen namunani kriting.
4. Potensiometr «Reg toka» yordamida ( $L_1$ ) g'altakdan o'tuvchi tokni maksimal qiymatiga qo'ying. Buni potensiometr buragichini soat strelkasi yo'nalishida oxirigacha burab amalga oshiriladi. Sezgirlikni o'zgartirib ostsillografning vertikal(«Y» plastinka) og'ishini oshirib borganda, ostsillograf ekranidagi vertikal chiziq ekrandan chiqib ketmasligiga erishing.
5. «Masshtab» potensiometri yordamida «X» o'qi bo'ylab gisterezis sirtmog'i yoyilishini mumkin qadar katta qiymatini belgilab qo'ying va unga mos kelgan ostsillograf shkalasining bo'limlar soni ( $N_1$ ) ni aniqlab uni jadvalga yozing. (Bunda gisterezis sirtmog'ining to'yinish sohasi «X» o'qi bo'ylab ekrandan chiqishi mumkin).
6. «Reg toka» potensiometri yordamida tokni kamaytirib borib gisterezis sirtmog'ini (to'yinish sohasini ham hisobga olgan holda) chegarasi «X» o'qi bo'yicha ekran chegarasiga mos kelgan holatdagi (I) tok qiymatini va ostsillograf shkalasining bo'limlar sonini ( $N_2$ ) jadvalga yozing.
7. G'altakning magnit maydonini hisoblash uchun quyidagi ifodadan foydalaning

$$H = \frac{I}{2\bar{R}} \cdot n$$

bunda  $\bar{R}$  - g'altakning radiusi, n - o'ramlar soni.

Koertsitiv kuchning qiymatini esa quyidagi ifoda yordamida hisoblab toping

$$H_k(OD) = C \cdot N_1 = \frac{I_k}{2\bar{R}N_2} N_1$$

bunda  $\bar{R} = 18$  mm, n=2500.

8. 3-7 bandlarni boshqa namunalar uchun ham bajaring.

2-jadval

Nº	namuna	N <sub>1</sub>	N <sub>2</sub>	I	H <sub>k</sub>
1					
2					
3					
.					
.					
.					

### Nazorat uchun savollar

1. Magnitlanish vektori  $\vec{j}$ , muhitning magnit singdiruvchanligi va magnit qabul qiluvchanlik to'g'risida tushuncha bering.  $\mu$  va  $\chi$  orasidagi bog'lanishni yozing.
2. Jismlardagi magnit maydon vektori qanday? Magnit maydon kuchlanganlik vektori  $\vec{H}$ , magnit maydon induksiya vektori  $\vec{B}$  va magnitlanish vektori  $\vec{j}$  to'g'risida tushuncha bering.
3. Har bir kattalik birliklarini keltirib chiqaring va tushuntiring.
4. Diamagnetizm, paramagnetizm va ferromagnetizm to'g'risida tushuncha bering. Kyuri nuqtasi nima? Domenlar to'g'risida tushuncha bering.
5. Gisterezis sirtmog'i nima? Qanday kuchga koersativ kuch deyiladi?
6. Qurilmaning elektr sxemasini chizing va ishslash prinsipini tushuntirib bering.
7. Tajriba asosida olingan qiymatlarga qarab gisterezis sirtmog'ini tushuntiring.

### Adabiyotlar

1. I.V. Savelev. Umumiy fizika kursi. II tom, O'qituvchi., T., 1973.
2. O. Axmadjonov. Fizika kursi. II tom. O'qituvchi., T., 1988 .
3. N.N. Maysova. Umumiy fizika kursidan praktikum, 1970.

## 10 - laboratoriya ishi

### Geyger–Myuller sanagichining ishlash uslubini o’rganish

**Ishning maqsadi:** Geyger–Myuller sanagichining ishini va gaz razryadi sanagichlarining sanash tavsiflarini o’rganish.

**Kerakli asboblar va materiallar:** Geyger–Myuller (GM) sanagichi, radioaktiv namuna, qo’rg’oshin “uycha”, yuqori kuchlanishli to’g’rilagich, hisoblash qurilmasi, sekundomer.

### Qisqacha nazariy ma’lumot

Zaryadlangan zarrachalarni sanagichlar – yadro zaryadlarini, rentgen, gamma-nurlarni qayd qilish va hisoblash uchun qo’llaniladi. Asboblarning ishlash uslubi nomustaqlil gaz razryadidan foydalanishga asoslangan.



Gazlarda tok tashuvchilar elektr maydonining mavjudligi bilan bog’liq bo’limgan tashqi ta’sirlar natijasida hosil bo’lushi mumkun. Bunday holda gazlarda nomustaqlil o’tkazuvchanlik hosil bo’ladi. Mustaqil bo’limgan razryad gazlarni yuqori haroratgacha qizdirish bilan (termik ionlashtirish), ultrabinafsha yoki rentgen nurlari ta’sirida, radioaktiv modda nurlanishlarning ta’siri ostida kelishi mumkun.

Geyger–Myuller sanagichlari inert gaz to’ldirilgan qayd qilgichlar turkumiga kiradi va ularda nomustaqlil gaz zaryadi yordamida alfa, betta zarrachalar, gamma va rentgen nurlari hamda boshqa nurlarni qayd qilish va sanash uchun qo’llaniladi. Bu sanagichlarning zaryadlangan zarrachalarni qayd qilish sezgirligi yuqori, sodda tuzilishga ega bo’lganligi uchun radiometriyada ko’p qo’llaniladi.

Sanagichlarning sanash tezligi bilan elektrodlar orasiga qo’yilgan kuchlanish orasidagi bog’lanish ularning asosiy tavsifi bo’lib xizmat qiladi. Bu bog’lanish gaz razryadli sanagichlarning sanash tavsifi deyiladi.

Geyger–Myuller sanagichlari ikki bo’ladi: Silindrik va uchlari tomondan sanaydigan sanagichlar. Silindrik sanagichlar yupqa metall ichiga metall qoplangan (1) shisha silindrik, uchlari kovsharlangan naydan va silindrning o’tasidan o’tgan uchlarni tutashtiruvchi simdan (2) iborat qurilma. O’tasidan o’tgan sim anod va trubkani sirti yoki ichki sirtiga yopishtirilgan metall kated vazifasini o’taydi (1-rasm).

Uchlari tomonidan sanaydigan sanagichning tuzilishi yuqoridagidan qiladi (2-rasm). Metallashtirilgan shisha (1) kated vazifasini o’taydi, o’rtadan




otgan sim (2) anod vazifasini o'taydi, qurilmaning uch tomoni 20-30 mkm qalinlikdagi slyuda yopishtirilgan tuynukchadan iborat bo'ladi. O'rtadagi simning bir uchi shisha bilan qoplangan.

Ionlashtiruvchi nurlanish yon tomonidan (1-rasm) yoki sanagich uchidagi slyuda tirkish orqali (2-rasm) sanagichga tushadi.

Sanagich inert gaz - argon yoki neon bilan to'ldiriladi. Sanagichning zaryadlangan zarrachalarni sanashi uchun qo'yiladigan kuchlanish sanagich to'ldirilgan inert gazning bosimiga bog'liq. Odatda bu gazning bosimi 100-200 simob ustuni miqdorida olinadi. maning ularish sxemasi 3-rasmida keltirilgan. GM sanagichiga qo'yilgan  $U_0$  kuchlanish elektrodlar orasida kuchli bir jinsli bo'limgan elektr maydonini hosil qiladi.

Agarda  $U_0$  kuchlanish ularish potensiali  $U_y$  dan katta bo'lsa, (odatda  $U_0=500+1500V$ ) bu holda sanagichning hajmiga tushgan har qanday zaryadlangan zarracha bir juft ion hosil qiladi va bu zaryadni davom etish vaqtiga  $10^{-7}$  -  $10^{-6}$  s. Tashqi elektr zanjirida hosil bo'ladigan tokning impulsi kuchaytirgich (K)da kuchaytiriladi va sanagich qurilmada (S.Q) sanaladi. Sanagichning hajmida hosil bo'lgan gaz ionlari elektr maydoni ta'sirida elektrodlar tomon harakat qiladi. Sanagichning hajmi inert gaz bilan to'ldirilganligi uchun hosil bo'ladigan manfiy zarracha elektron bo'lib, u anod tomon harakat qiladi. Elektrodlar orasidagi maydon bir jinsli bo'limganligi uchun yuqori kuchlanganlik sohasi bo'lgan elektron tezlashib yuqori energiyaga erishadi va u o'z yo'lida gaz atomlari bilan to'qnashib ularni ionlashtiradi. Demak, hosil bo'ladigan har bir elektron anod tomon harakatida bir necha juft ion hosil qiladi, bu esa elektronlar ko'chishini vujudga keltiradi. Bulardan tashqari bu elektronlar bir necha atomlarni qo'zg'atilgan yuqori energetik sathga o'tkazib yuboradi, natijada bu qo'zg'atilgan atomlar va molekulalar fotonlar chiqaradi va ularning bir qismi katodga tushib ularning sirtidan yangi fotoelektronlarni urib chiqaradi. Bu fotoelektronlar o'zlarining anodga tomon harakat yo'llaridagi atomlarni ionlab yuboradi va ular ham o'z navbatida katodga urilib yangi elektronlarni hosil qilib, elektronlar ko'chkisini hosil qiladi. Bu jarayon ketma-ket davom etib, anod simiga yaqinlashgan sari elektronlarning ko'chkisini hosil qiladi va natijada anod simi uzunasi bo'yicha tok razryadi hosil bo'ladi. Bu razryad yuqori qarshilik ( $10^8$ - $10^9$  Om) ularishi bilan o'chiriladi. Yoki sanagichning o'zida vujudga kelgan jarayonlar hisobiga ham o'chishi mumkun. Bunday sanagichni o'zi o'chadigan sanagich deb ataladi.

Razryadni tashqi qarshilik yordami bilan o'chirilishi qarshilik bo'ylab razryad toki oqib o'tganda unda katta potensial tushuvi hosil bo'lishi bilan tushuntiriladi. Natijada elektrodlararo oraliqqa razryadni ushlab turishi uchun etarli bo'limgan kuchlanishning faqat bir qismi to'g'ri keladi.




3 - rasm

O'zi o'chadigan sanagichlarda razryadlarning tugashi, elektronlarning tolaga yetishi uchun qo'zg'alishga ulgurmeydi deb tushuntiriladi, chunki elektronlarning harakatchanligi musbat ionlarga qaraganda 1000 marta katta. O'zi o'chadigan sanagichlarda razryadni o'chirish uchun sanagichni to'ldirib turuvchi gazga odatda ko'p atomli organik gaz aralashmasi (masalan spirt bug'lari) qo'shiladi. Bunday sanagich  $10^{-4}$  s tartibdagi interval bilan ketma-ket keluvchi zarra impulslarini ijaraga oladi.

Sanagichda impulsni davom etish vaqtini skunat vaqtini deyiladi yoki sanagichga ketma-ket keluvchi zarrachalarni ajrata olish vaqtini deyiladi. Skunat vaqtini qancha kam bo'lsa, sanagich vaqt birligi ichida shuncha ko'p zarrachalarni sanay olishi mumkun.

Vaqt birligi ichida qayd qilingan zarrachalar soni  $N$  ning sanagichga qo'yilgan kuchlanishga bog'liqlik grafigi GM sanagichining sanash tavsifi deyiladi (4-rasm). Tavsifning ishchiqismi (plato) bir necha o'ndanbir necha yuz voltgacha cho'zilishi mumkun.

Grafigning tekis bo'lagida sanoqlar soni sanagichga tushgan ionlashtiruvchi zarrachalar soniga tengdir.



Gamma nurlar ular hosil qilgan ikkilamchi zaryadlangan zarrachalar - fotoelektronlar, kompton elektronlar yoki elektron- pozitron jufti orqali aniqlanib qayd etiladi. Neytronlar esa sanagichlardagi gaz atomlari bilan bo'lgan to'qnashuvlarda hosil bo'ladigan yadrolar (tepki yadrolar) va yadro reaksiyalarida hosil bo'ladigan zarrachalar orqali qayd qilinadi. Grafikning 1-qismiga mos kelgan sohasida kuchlanish ortish bilan sanash tezligi keskin ortib boradi. Bunda sanagichda hosil bo'ladigan elektr impulsarning amplitudalari sakrashi juda kuchli bo'ladi. Grafikning 2-qismida sanash tezligi kuchlanishga bog'liq bo'lmaydi. Yaxshi sanagichlar grafigining tekis bo'lagi 100V oraliqqa mos keladi. Grafikning 3-sohasi zarrachalar tushmasa ham yolg'on impulslar hosil bo'lib, zarrachalarni qayd qilishda xato bo'lgan natijalarni yuzaga keltiradi, shuning uchun bunday kuchlanishlarda ishlash mumkuh emas.

Sanagich ishlaydigan ishchi kuchlanish qilib grafikning tekis bo'lagi o'rtasiga mos kelgan kuchlanish tanlab olinadi, shuning uchun ishlaydigan kuchlanishni tanlashda har bir sanagichning sanash tavsifini o'rganib chiqish kerak.


Radioaktiv nurlanish beradigan manba yo'q bo'lsa, sanagich kosmik nurlar hosil qilgan zarrachalarni sanaydi. Bu holda sanagich sanaydigan sanoq qurilmaning foni deyiladi. Tashqi fonni bartaraf qilish uchun sanagichni qo'rg'oshin uychanining ichiga joylashtirish kerak.

### **Qurilmaning tuzilishi va o'lchash usuli**

Sanash tavsifini olish uchun 5-rasmida keltirilgan qurilma sxemasidan foydalilanadi. Bunda: 1-hisob tavsifi o'rganilayotgan GM sanagichi; 2-ko'rg'oshin "uycha". Sanagich elektrodlariga beriladigan kuchlanish yuqori kuchlanishli

to'g'rilaqich (YKT)dan olinadi. Sanagichda qayd etilgan elektr impulsleri (K)-kuchaytirgichda oldin kuchaytirib olinadi, so'ngra (HQ) – hisoblash qurilmasida qayd etiladi.

Asboblarni ulash va ishslash tartibi ilovada bayon etilgan. Hisoblash tezligini aniqlash uchun sekundomer kerak bo'ladi, u esa sanagich manbaida o'rnatalgan.



5-rasm

### Ilova Qurilmani ulash tartibi va asboblar bilan ishslash uchun ko'rsatma.

Qurilma GM sanagi-chidan, HQ(PP-16)

- hisoblash qurilmasidan va ES –elektrosekundomerdan iborat. Chizmada R reostat; B-voltmetr, 12,3(YKT) va ES tugmachalari; 1-YKT va ES manbasini ulash; 2-elektrosekundomer (ES)- ulash va to'xtatish; 3-elektrosekundomerni yurgizish va boshlang'ich holatga qaytarish. (PP-16) – hisoblash qurilmasining tugmalari 4-ulash, 5-boshlang'ich holatga keltirish (sbros) 6-hisoblagichni yurgizgich, 7- hisoblagichni to'xtatgich tugmalar. Kirgizish(вход)ni 1:1 uyaga ulanadi.

Qurilmani ishga tayyorlash uchun R – potensiometrning dastasini soat strelkasiga teskari yo'naliishda burab boshlang'ich holatga keltiriladi, 8-tugma bosilib (agar bosilmagan bo'lsa) 1:1 kirish ulanadi, GM sanagichdan keluvchi sim shtekkeri HQ ga ulanganligi tekshiriladi.

Qurilmani ulash uchun quyidagi ishlar bajariladi:

Manba bloki va HQ vilkalarini rezetkaga (220 V) ulanadi.

1. 1 va 2 tumbler ulanadi.
2. a-(вкл.) tugma bosiladi.
3. Agar hisoblash qurilmasi o'nliklarda nollar bo'lmasa 5-(сброс) tugmasi bosiladi.

### Asboblar bilan ishslash

- a) GM sanagichining ichki kuchlanishi aniqlanadi: buning uchun R-potensiometr dastasi soat strelkasi yo'naliishida sekin burab boriladi va impulsler hisoblagichining birinchi (x1) o'nligi kuzatilib turiladi. Hisob paydo bo'lishi bilan voltmetrning ko'rsatishi aniqlanib yozib olinadi. So'ng 7 va 5 tugmachalar yordamida qurilmani ishchi holatiga keltiriladi.
- b) Kuchlanishni ulanish (Uuk) dan 20 V katta qiymatiga qo'yiladi. Sekundomer va impulsler sanagichi bir vaqtida ishga tushiriladi. 60 s dan kiyin sekundomer va impulsler sanagichi to'xtalib, impulsler soni va kuchlanish yozib olinadi.
- c) 5-tugma yordamida qurilma boshlang'ich holatga keltiriladi.
- d) Kuchlanish yana 20 V ga oshiriladi va b),c)-bandlarda ko'rsatilgan o'lichashlar takrorlanadi.

- e) Ushbu o'lchashlar, ya'ni, sanash tavsifini olish voltmetrning maksimal ko'rsatishigacha davom ettiriladi.
- f) Sanash tavsifining chizmasi  $N=f(U)$  chiziladi.
- g) Chizmaning yassi qismi (plato)ning uzunligi aniqlanadi va sanash tavsifi yassi qismining o'rtasiga mos keluvchi ishchi kuchlanish topiladi.
- h) Sanagichga ishchi kuchlanish qo'yiladi va sanagich foniga mos keluvchi sanash tezligi aniqlanadi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Geyger-Myuller hisoblagichining tuzilishi va ishlashini tushuntiring.
2. Radioaktivlik nima?
3. Massa nuqsoni va bog'lanish energiyasini tushuntiring.
4. Yadro reaksiyasi deganda nimani tushunasiz?
5. Gaz razryadi turlarini ayting.
6. Sanagichning ishslash grafigini tushuntiring.

### **Adabiyotlar**

1. Лабораторный практикум по физике. /под.ред. А.С.Ахматова. М.Высшая школа, 1980, с331-334.
2. Umumiy fizika kursi bo'yicha gazlarda elektr razryadlari, radioaktivlik, yadro reaksiyalari va kosmik nurlarga oid mavzular.

## M U N D A R I J A

<b>1-laboratoriya ishi.</b> Atvud mashinasida kinematika va dinamika qonunlarini o'rganish . . . . .	4
<b>2-laboratoriya ishi.</b> Jismlarning inersiya momentlarini dinamik usul bilan aniqlash . . . . .	10
<b>3-laboratoriya ishi.</b> Oberbek mayatnigida jismlarning inersiya momentlarini aniqlash . . . . .	18
<b>4-laboratoriya ishi.</b> Tushayotgan sharchaning kinetik va potensial energiyalarini aniqlash . . . . .	25
<b>5-laboratoriya ishi.</b> Elektrostatik maydonda potensialning taqsimlanishini o'rganish . . . . .	29
<b>6-laboratoriya ishi.</b> O'tkazgich qarshiligidagi Uitston ko'prigi vositasida o'lchash . . . . .	34
<b>7-laboratoriya ishi.</b> Amper kuchini va magnit maydon induksiyasini aniqlash . . . . .	39
<b>8-laboratoriya ishi.</b> Tangens-bussol yordamida yer magnit maydon kuchlanishining gorizontal tashkil etuvchisini aniqlash . . . . .	48
<b>9-laboratoriya ishi.</b> Solenoid o'qidagi magnit maydonini o'rganish . . . . .	56
<b>10-laboratoriya ishi.</b> Geyger-Myuller sanagichining ishlash uslubini o'rganish . . . . .	64

**“Fizika fanidan laboratoriya ishlari va uslubiy ko’rsatmalar. I – qism Mexanika. Elektrostatika. Elektro-magnetizm.”** nomli uslubiy ko’rsatma “Fizika” kafedrasining majlisida muhokama etildi (2005 y. 2 may, 28 – bayonnomma) va RRT fakultetining ilmiy –metodik kengashi tomonidan nashr qilishga tavsiya etildi  
(2006 y. 10 aprel, 7 - bayonnomma)

Mas’ul muharrir: Fizika-matematika fanlari  
doktori prof. Abduraxmonov Q.P.,

Tuzuvchilar:  
Prof. Abduraxmonov Q.P.  
Prof. Abduqodirov M.A.  
Kat.o’qit. Ochilova N.X.  
Kat.o’qit. Xolmedov H.M.  
Assist. Masharipova S.YU.  
Dots. Abduazizov O.A.  
Dots. Haydarov Q.H.  
Ass. Muhamedaminova L.M.  
Parpiyeva Q.

Bosh muharrir:  
Muharrir:  
Muharrir:  
Tahrirchi: